2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 123 (1722), 2026-yil 19-iyun, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

# YANGI O‘ZBEKISTON BILAN JAHON INVESTITSIYA HAMJAMIYATI O‘RTASIDAGI ISHONCHLI KO‘PRIK

**18-iyun kuni Xalqaro kongress markazida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yalpi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.**





Investitsiya — mamlakat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardan biri. Ya’ni qaysi mamlakatga sarmoyadorlar qiziqishi ortyaptimi, demak, bu yerda biznes uchun muhit yaxshi, sharoit yetarli. Maqsad aniq. Islohotlar o‘zani to‘g‘ri.

Bugun O‘zbekiston shunday davlatlardan biri sifatida jahon hamjamiyati e’tiboriga tushdi. Mamlakatimizga investitsiya kiritib, ishlashni xohlovchilar soni tobora ortib, ularning safi nafaqat son, balki sifat jihatidan kengayib borayotgani fikrimiz tasdig‘idir. Bu boradagi islohotlar yanada jadal tus olib, amaliy samaradorlik ko‘lami ortishida keyingi yillarda mahalliy va xorijiy investorlarga biznes uchun katta imkoniyat hamda rag‘bat berishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim omil bo‘lyapti. Ushbu yo‘nalishdagi ishlar izchillik kasb etgan. Biznes shart-sharoitlar tajriba, ayni faoliyat jarayonidagi o‘rganishlar asosida takomillashtirilib borilmoqda. Bunda, tabiiyki, Xorijiy investorlar kengashining alohida o‘rni bor. Negaki, davlatimiz rahbarining 2019-yil 13-noyabrdagi qarori asosida ish boshlagan mazkur kengash faoliyati investitsiya muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiyotning ustuvor soha va muhim tarmoqlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalb qilishni jadallashtirish, ilg‘or xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda sifatli investitsiya jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan.

Tadbirda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso, yetakchi xorijiy kompaniyalar, banklar va moliyaviy institutlar rahbarlari hamda Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlaridagi investorlar kengashlari a’zolari bo‘lgan nufuzli xalqaro tashkilot hamda tuzilmalar vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishda so‘zga chiqib, so‘nggi yillarda Prezident huzuridagi kengash amaliy islohotlar maydoniga aylanib, mamlakatimiz va jahon investitsiya hamjamiyati o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik sifatida o‘z mavqeini mustahkamlaganini ta’kidladi.

Darhaqiqat, Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Xorijiy investorlar kengashining yalpi yig‘ilishini muntazam o‘tkazib borish tizimli yo‘lga qo‘yilgani mamlakatimiz investitsiya siyosatida institutsional yondashuv tobora mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Kengash davlat va investorlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotni ta’minlab, mavjud muammolarni aniqlash va ularga tezkor yechim topishning samarali mexanizmi o‘laroq xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda investitsiya muhiti tubdan yaxshilanib borayotgani o‘tgan yili yalpi ichki mahsulot 7,7 foiz o‘sganida, iqtisodiyotga 43 milliard dollar investitsiya jalb qilinganida, milliy valyutamiz barqarorligi ta’minlanib, xalqaro zaxiralarimiz hajmi 70 milliard dollardan oshganida ham yaqqol ko‘rinadi.

*Davomi 2-betda*

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XORIJIY INVESTORLAR KENGASHINING YALPI MAJLISIDAGI NUTQI

Hurmatli uchrashuv ishtirokchilari!

Hurmatli Odil Reno-Basso xonim!

Qadrli do‘stlar!

Sizlarni Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yalpi majlisida ko‘rib turganimdan xursandman.

Avvalo, hurmatli Reno-Basso xonim, islohotlarimizni doimiy qo‘llab-quvvatlab kelayotganingiz va Kengash faoliyatidagi samarali raisligingiz uchun sizga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman. Shu bilan birga, bugungi anjumanda qatnashayotgan barcha xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalar rahbarlariga samimiy ehtiromimni izhor etaman.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

So‘nggi yillarda Kengash oddiy maslahat mexanizmidan amaliy islohotlar maydoniga, Yangi O‘zbekiston bilan jahon investitsiya hamjamiyati o‘rtasidagi ishonchli ko‘prikka aylandi. Bugun Kengash mustaqil Assotsiatsiya maqomiga ega bo‘lib, tom ma’noda kuchli institut darajasiga ko‘tarildi. O‘tgan bir yil davomida Kengashda ishtirok etayotgan kompaniyalar soni 54 tadan 85 taga yetdi. Ular iqtisodiyotimizning 23 ta tarmog‘ini qamrab olib, ishchi guruhlar faoliyatida bevosita ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi Kengashning Ijroiya qo‘mitasi tarkibida faoliyat yuritmoqda.

E’tiborli tomoni, barcha a’zolarimizning Kengashdagi faolligi tobora oshmoqda. Bu — mazkur investitsiya platformasiga bo‘lgan yuksak ishonchning yaqqol dalilidir.

Hurmatli kengash ishtirokchilari!

Sizlar bilan o‘tgan yili ham uchrashib, ko‘p masalalarni gaplashib olgan edik. Avvalgi majlisda ilgari surilgan 21 ta tashabbusga aniq yechimlar berildi.

Shuni alohida ta’kidlamoqchiman, investorlarning tashabbuslari davlat siyosatida o‘zining amaliy ifodasini topmoqda. Takliflarning salmoqli qismi asosida normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirdik. Jumladan: Soliq kodeksiga investorlar uchun qulay bo‘lgan o‘zgartirishlar kiritildi; kompaniyalar o‘rtasidagi ichki qarz bitimlari moliya nazoratidan chiqarildi; asosiy vositalarni tezlashtirilgan tartibda amortizatsiya qilish huquqi berildi; xalqaro standartlar asosida hisobot yurituvchi xorijiy shirkatlar uchun ko‘plab majburiy talablar bekor qilindi.

Bundan tashqari, “Muqobil investitsiya jamg‘armalari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Mas’uliyatli biznes yuritish standartlarini joriy etish hamda 16 ta texnik reglamentni xalqaro me’yorlarga muvofiqlashtirish dasturi tayyorlandi.

Shu bilan birga, xorijiy investorlarga teng va adolatli sharoit yaratish bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni o‘z zimmamizga olishda yangi qadamlar tashladik. Yaqinda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Xalqaro investitsiyalar va ko‘p millatli korxonalar to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga qo‘shilishimizni e’lon qildik. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilinishi kutilmoqda.

Bularning barchasi — g‘oyalaringiz amaliyotda tatbiq etilayotganiga yorqin dalildir.

Hurmatli Kengash ishtirokchilari!

O‘tgan davrda Kengash huzuridagi ishchi guruhlar tomonidan investorlar uchun 50 dan ortiq foydali yig‘ilishlar o‘tkazildi. Natijada muqobil investitsiya jamg‘armalari, garov qonunchiligi, mas’uliyatli biznes yuritish, professional kadrlar tayyorlash, soliq ma’murchiligi, yer ajratish va energetika kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha muammolar xorijiy investorlar hamraisligida atroflicha muhokama qilindi.

Bugungi majlisga tayyorgarlik jarayonida sizlardan 120 ta yangi taklif va tashabbus kelib tushdi. Ularning barchasini batafsil tahlil qilib, yettita ustuvor yo‘nalishga birlashtirdik. Bular: investitsiya muhitini yaxshilash, soliq tizimi, kadastr, energetika, moliya va bank tizimi, korporativ boshqaruv, sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyot masalalaridir.

Ayniqsa, valyuta aylanmasidagi monitoring jarayonlarini yengillashtirish; islomiy sug‘urta, “yashil” kredit, banklarning muammoli aktivlari savdosini yo‘lga qo‘yish kabi yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy qilish; korxonalarda atrof-muhit, ijtimoiy mas’uliyat va samarali boshqaruvni o‘z ichiga olgan ESG tamoyillari qo‘llanishini rag‘batlantirish kabi takliflar hozir har qachongidan ham dolzarbdir.

Shu bois, har bir yo‘nalish bo‘yicha mas’ullar belgilanib, aniq yechimlar ishlab chiqildi.

Fursatdan foydalanib, mana shu dolzarb vazifani o‘z zimmasiga olgan ishchi guruhlar hamraislari: “Vision Invest”, “BDO”, “Crowe”, “OTP Group”, “Franklin Templeton”, “Ernst & Young”, “Kosta Legal” va “ACWA” kompaniyalari rahbarlariga minnatdorlik bildiraman.

Shuningdek, yil davomida samarali faollik ko‘rsatib, muhim hujjatlar va puxta tashabbuslar tayyorlagani uchun Kengashning barcha a’zolariga alohida tashakkur aytaman.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Endi bevosita muloqotga o‘tsak.

Yil davomidagi tahlillaringiz asosida qanday muammolarni aniqladingiz? Investitsiya muhitini yanada yaxshilash uchun Hukumat nima ishlar qilishi kerak?

Bugun ushbu zalda Hukumat a’zolari — Bosh vazir o‘rinbosarlari va vazirlar ishtirok etmoqda. Sizlarni diqqat bilan tinglashga, har bir muammo va tavsiyani batafsil muhokama qilishga tayyormiz. Ishimizni yanada samarali tashkil etish bo‘yicha takliflaringiz bo‘lsa, ularni ochiq muloqot ruhida ko‘rib chiqamiz.

Albatta, bugun ko‘tariladigan barcha masalalar umumlashtirilib, majlisimiz yakunlari bo‘yicha yagona “yo‘l xaritasi” ishlab chiqiladi. Bosh vazir o‘rinbosari J.Xo‘jayev va Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri L.Qudratov har chorakda ularning ijrosi bo‘yicha menga shaxsan hisobot berib boradi.

Endi fikr va mulohazalaringizni eshitamiz.

* * *

Hurmatli do‘stlar!

Bugungi muloqotimiz g‘oyat mazmunli va foydali bo‘ldi. Ayniqsa, amaliy natijaga yo‘naltirilgan takliflaringizdan juda xursand bo‘ldim.

Chin hamkorlarimizning barcha tashabbuslari xalqimiz farovonligi va investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Yangi O‘zbekistonda ochiq, barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyotni barpo etishga qo‘shayotgan hissangiz biz uchun doim qadrli.

Bu kabi muloqotlarimiz qancha ko‘p bo‘lsa, ishimiz shuncha oldinga ketadi. Barchangizga Kengashimizda ishtirok etganingiz uchun samimiy rahmat aytmoqchiman.

Fursatdan foydalanib, sizlarga mustahkam sog‘liq, professional faoliyatingiz va shaxsiy hayotingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.

# XORIJIY INVESTORLAR BILAN KENG KO‘LAMLI SHERIKLIK YANADA MUSTAHKAMLANADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-iyun kuni Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig‘ilishi doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso boshchiligidagi delegatsiya, O‘mon Sultonligi iqtisodiyot vaziri Xamis bin Sayf al-Jabriy boshchiligidagi delegatsiya va Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusefni qabul qildi.**

YTTB prezidenti Odil Reno-Basso boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan Yangi O‘zbekistonda islohotlar dasturini amalga oshirish doirasida amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish va keng ko‘lamli sheriklikni mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Ushbu yetakchi ko‘p tomonlama moliyaviy institut bilan strategik sheriklik bugungi kunda har qachongidan ham yuqori darajada ekani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

*Davomi 2-betda*

# O‘ZBEKISTON – GERMANIYA: IKKI TOMONLAMA ALOQALAR IZCHIL RIVOJLANMOQDA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan 17-18-iyun kunlari Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer rafiqasi hamrohligida rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi.**

Qayd etish kerak, ikki kunlik tashrif dasturi sermazmun bo‘ldi. Tashrifning birinchi kuni O‘zbekiston va Germaniya davlat rahbarlarining tor doirada hamda rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi. Bir qator yangi qo‘shma loyiha va dasturlar ishga tushirildi.

Davlatlar rahbarlari o‘tkazilgan muzokaralar yakunlari bo‘yicha Qo‘shma bayonot qabul qilib, ko‘p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlashga intilishlarini tasdiqladilar. Ikki tomonlama hujjatlarni almashish marosimi ham bo‘lib o‘tdi. O‘zbekistonda shaharlarni barqaror rivojlantirish bo‘yicha loyihalarni bajarish uchun grant mablag‘lari ajratish va imtiyozli moliyalashtirishni nazarda tutuvchi moliyaviy hamkorlik sohasidagi kelishuvlar imzolandi.

*Davomi 2-betda*

Kengash o‘tgan vaqt mobaynida mustaqil assotsiatsiya maqomini olib, mamlakat iqtisodiyotining 23 ta tarmog‘ida faoliyat yurituvchi 85 ta kompaniyani birlashtirdi. Ijroiya qo‘mitasi tarkibiga Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi kiradi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 19-iyun, 123-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

# YANGI O‘ZBEKISTON BILAN JAHON INVESTITSIYA HAMJAMIYATI O‘RTASIDAGI ISHONCHLI KO‘PRIK

Boshlanishi 1-betda

Kengash o‘tgan vaqt mobaynida mustaqil assotsiatsiya maqomini olib, mamlakat iqtisodiyotining 23 ta tarmog‘ida faoliyat yurituvchi 85 ta kompaniyani birlashtirdi. Ijroiya qo‘mitasi tarkibiga Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi kiradi.

Normativ-huquqiy baza izchil takomillashtirilgani hamkorlikning muhim amaliy natijalaridan biri bo‘ldi.

Kengash a’zolari takliflaridan kelib chiqib, Soliq kodeksiga o‘zgartirishlar kiritildi, moliyaviy tartibga solish va hisob yuritishning ayrim tartib-taomillari soddalashtirildi, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini qo‘llaydigan xorijiy kompaniyalar uchun qator majburiy talablar bekor qilindi.

Shu bilan birga, milliy qonunchilikni xalqaro amaliyotga yanada yaqinlashtirish davom etmoqda. Jumladan, “Muqobil investitsiya jamg‘armalari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi tayyorlandi, Mas’uliyatli biznes yuritish standartlarini joriy etish bo‘yicha dastur ishlab chiqildi, texnik reglamentlarni xalqaro me’yorlarga muvofiqlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (IHTT) xalqaro investitsiyalar va ko‘p millatli korxonalar to‘g‘risidagi deklaratsiyasiga qo‘shilish jarayonini boshladi. Keyingi qadam sifatida Toshkent xalqaro moliya markazi to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qonunni qabul qilish rejalashtirilmoqda.

“Bularning bari g‘oyalaringiz amaliyotga tatbiq etilayotganining yorqin dalilidir”, dedi davlatimiz rahbari.

Kengash faoliyati tahlil qilinar ekan, g‘oya va tashabbuslar amaliy harakatlarga, yirik loyihalarga, huquqiy asoslar mustahkamlanishiga xizmat qilayotgani ayon bo‘ladi.

Kengashning sohaviy ishchi guruhlari faoliyati tizimli tus oldi. Moliya bozorini rivojlantirish, garov qonunchiligini takomillashtirish, mas’uliyatli biznes yuritish, soliq ma’murchiligi, energetika, yerdan foydalanishni boshqarish, kadrlar tayyorlash hamda davlat va investorlar uchun o‘zaro manfaatli bo‘lgan boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha 50 dan ortiq uchrashuv o‘tkazildi.

Mazkur majlisga tayyorgarlik jarayonida xorijiy hamkorlarning yangi tashabbuslari to‘plami shakllantirildi. Kelib tushgan 120 ta taklif investitsiya muhitini yaxshilash, soliq va kadastr tizimlari, bank-moliya sohasi, korporativ boshqaruv, energetika, shuningdek, sun’iy intellekt va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qamrab olgan yettita ustuvor yo‘nalishga birlashtirildi.

Valyuta aylanmasini tartibga solishni yanada yengillashtirish, islomiy sug‘urta va “yashil” kreditlash kabi zamonaviy moliyaviy vositalarni joriy etish, bank aktivlari bozorini yo‘lga qo‘yish hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv tamoyillarini keng qo‘llash bo‘yicha takliflarga alohida e’tibor qaratildi. Har bir yo‘nalish bo‘yicha amaliy yechimlar tayyorlanib, mas’ul ijrochilar belgilab olindi.

Prezidentimiz kengash ishbilarmonlarning tashabbuslari davlat siyosatida o‘z amaliy ifodasini topadigan samarali ochiq muloqot maydoni bo‘lib xizmat qilayotganini ta’kidladi. Shu bois, xalqaro investorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri hamkorlikni saqlab qolish hamda qayta aloqa mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhimligiga alohida urg‘u berildi.

Yig‘ilish yakunida barcha takliflarni umumlashtirib, yagona “yo‘l xaritasi” ishlab chiqish, amalga oshirish muddatlari va nazorat mexanizmlarini aniq belgilash topshirildi.

O‘zbekiston hukumatining investitsiya sohasi uchun mas’ul a’zolari hujjat ijrosi yuzasidan Prezidentga har chorakda hisobot taqdim etib borishi belgilandi.

Yig‘ilish ishtirokchilari o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish, O‘zbekistonning investitsiya jozibadorligini yuksaltirish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash hamda islohotlarni muvaffaqiyatli davom ettirishga qaratilgan tashabbuslarni birgalikda amalga oshirishdan manfaatdorligini bildirdi.

Shundan so‘ng tadqimotlar, ishtirokchilarning chiqishlari hamda kengash a’zolarining savol-javob sessiyasi bo‘lib o‘tdi.

**Dilshod ULUG‘MURODOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# XORIJIY INVESTORLAR BILAN KENG KO‘LAMLI SHERIKLIK YANADA MUSTAHKAMLANADI

Boshlanishi 1-betda

Bugun O‘zbekiston YTTBning mintaqadagi eng yirik hamkori hisoblanadi. Ustuvor yo‘nalishlardagi loyihalarning umumiy portfeli 7 milliard dollardan oshdi. Investitsiyalarning katta qismi xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Ekologik transportni rivojlantirish, temir yo‘l infratuzilmasini raqamlashtirish, tadbirkorlik, ipoteka bozori va mamlakat startaplar ekotizimini qo‘llab-quvvatlash sohalarida yangi kelishuvlar imzolangani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Joriy yilda kichik va o‘rta biznesni kreditlash ko‘lamini kengaytirish, jumladan, eksportni moliyalashtirish, ayollar va yoshlarni biznes yuritishga o‘qitish dasturlarini amalga oshirish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish hamda bank-moliya sektorini transformatsiya qilish jarayonlarida ishtirok etish va boshqa yo‘nalishlar ustuvor etib belgilandi.

Ta’lim, sog‘liqni saqlash va transport infratuzilmasi sohalarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ilgari surish bo‘yicha rejalar qo‘llab-quvvatlandi.

Loyihalarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda ularni amalga oshirish samaradorligini yaxshilash maqsadida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlarini jalb etishdan manfaatdorlik bildirildi.

Xorijiy investorlar kengashining bo‘lajak to‘rtinchi yig‘ilishi kun tartibi ham ko‘rib chiqildi.

O‘mon Sultonligi iqtisodiyot vaziri Xamis bin Sayf al-Jabriy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga O‘mon Sultoni Haysam bin Toriq Ol Saidning samimiy salomini yetkazdi.

Tomonlar savdo-iqtisodiy va investitsiya-moliyaviy sohalardagi hamkorlikni jadallashtirish masalalari yuzasidan fikr almashishdi.

So‘nggi yillarda aloqalarimiz faollashgani, tovar ayirboshlash hajmi o‘sgani qayd etildi. O‘zbek — O‘mon investitsiya kompaniyasi ishtirokida muhim loyihalar samarali amalga oshirilmoqda. Keyingi oydan poytaxtlarimiz o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yiladi.

Shu yil Masqat shahrida Hukumatlararo qo‘shma komissiyaning navbatdagi yig‘ilishini o‘tkazishga kelishib olindi.

Muloqotda transport, logistika, geologiya, elektron tijorat, raqamli infratuzilma va boshqa yo‘nalishlarda istiqbolli loyihalarni ilgari surishga alohida e’tibor qaratildi.

Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusef bilan muloqotda mazkur xalqaro moliya instituti bilan hamkorlikni, birinchi navbatda, avvalgi uchrashuvlar davomida erishilgan oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada rivojlantirish masalalari diqqat markazida bo‘ldi.

Dilma Rusef O‘zbekistondagi islohotlarni yuksak baholab, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini kelgusida ham qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanini bildirdi.

O‘zbekiston Yangi taraqqiyot bankiga a’zo davlatlar safiga qo‘shilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Energetika, suv xo‘jaligi, transport va muhandislik infratuzilmasi bo‘yicha hamda xususiy sektor va ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash borasida bank ekspertlari ishtirokida o‘rta muddatli qo‘shma loyihalar portfeli shakllantirishga kelishib olindi. Yangi taraqqiyot bankining mintaqaviy ahamiyatga ega yirik transport-logistika loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etishi muhimligi ta’kidlandi.

Bankning yurtimizda ekologik transformatsiya bo‘yicha amalga oshirilayotgan dasturlar va loyihalardagi ishtirokiga alohida e’tibor qaratildi.

Kelgusida O‘zbekistonda Yangi taraqqiyot bankining yirik tadbirlarini o‘tkazish rejalari ham ko‘rib chiqildi.

**O‘zA**

# O‘ZBEKISTON – GERMANIYA: IKKI TOMONLAMA ALOQALAR IZCHIL RIVOJLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Oliy martabali mehmon 18-iyun kuni Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi.

Islom sivilizatsiyasi markazi tarixiy va zamonaviy ilm-fanni uyg‘unlashtirgan, qo‘lyozma manbalarni raqamli texnologiyalar asosida o‘rganishga xizmat qiluvchi yirik xalqaro ilmiy-madaniy majmuadir.

Milliy me’morchilik an’analari va zamonaviy dizayn yondashuvlari uyg‘unligida bunyod etilgan markazning gumbazlari, peshtoqlari hamda nafis naqsh bezaklari uning betakror me’moriy qiyofasini namoyon etadi.

Oliy martabali mehmonga xalqimiz tarixiy taraqqiyotining muhim bosqichlarini yorituvchi “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchi Renessans davri”, “Ikkinchi Renessans davri”, “O‘zbekiston XX asrda” hamda “Yangi O‘zbekiston — Yangi Renessans” bo‘limlari batafsil tanishtirildi. Ushbu ekspozitsiyalarda mazkur davrlar tarixi noyob ashyolar, qo‘lyozma manbalar, fotomateriallar va zamonaviy multimedia vositalari orqali yoritilgan.

> **Delegatsiya vakillari Qur’oni karim zalida bo‘lib, islom olamining eng nodir yodgorliklaridan bo‘lgan qadimiy Usmon Mus’hafi bilan tanishdi. Ushbu noyob manba o‘zining ulkan tarixiy va madaniy ahamiyati bilan tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldiradi.**

Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer davlatlararo madaniy muloqot va ma’naviy yaqinlikni mustahkamlab, global sharoitda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishda Islom sivilizatsiyasi markazining o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidladi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston va Germaniya Federativ Respublikasi o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar butunlay yangi bosqichga ko‘tarildi. Muntazamlik kasb etgan oliy darajadagi muloqotlar ikki tomonlama iqtisodiy sheriklikka yangi sur’at bag‘ishlamoqda.

Bugun O‘zbekiston va Germaniya iqtisodiyotlari bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega ekani amaliy loyihalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Germaniya o‘zining ilg‘or texnologiyalari va yuqori sifatli sanoat uskunalari bilan mamlakatimiz uchun eng ishonchli hamkorlardan biriga aylandi. Yurtimizda nemis kapitali va yuqori texnologiyalari ishtirokida amalga oshirilayotgan yirik tashabbuslar iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishga xizmat qilyapti.

Toshkent shahrida muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan “Papenburg Uzbekistan” qo‘shma korxonasi ana shunday yuqori texnologik hamkorlikning yorqin namunasidir.

Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer mazkur qo‘shma korxonada ham bo‘ldi.

Germaniyaning yetakchi texnologiyalari va milliy yo‘l qurilishi an’analari asosida tashkil etilgan ushbu korxona infratuzilmaviy taraqqiyot yo‘nalishida samarali faoliyat olib bormoqda. Ikki davlat rahbarlarining muhim kelishuvlari hamda O‘zbekiston Hukumatining tegishli qarori ijrosi doirasida 2021-yilda ish boshlagan mazkur subyekt qisqa muddatda milliy yo‘l infratuzilmasini xalqaro standartlar darajasida yangilashning muhim drayverlaridan biriga aylandi.

Loyihani keng ko‘lamda amalga oshirish, zamonaviy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish maqsadida poytaxtimizning Bektemir tumanidan 8 gektardan ortiq yer maydoni ajratilgan. Korxonaning qisqa fursatda to‘liq quvvat bilan ishga tushishi va yuqori samaradorlikka erishishida O‘zbekistondagi qulay tadbirkorlik muhiti, byurokratik to‘siqlarning yo‘qligi hamda qonunchilik darajasidagi kafolatlar muhim poydevor bo‘ldi.

Ushbu loyiha nafaqat iqtisodiy, balki katta ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Bugungi kunda korxonada faoliyat yuritayotgan yuqori malakali ishchi va mutaxassislarning asosiy qismini mahalliy yoshlar tashkil etadi. Ular nemis muhandislaridan zamonaviy texnologiyalarni boshqarish sirlarini o‘rganib, yurtimizda yo‘l qurilishi sohasining yangi avlod kadrlari bo‘lib yetishmoqda.

Ikki tomonlama sheriklik ko‘lamining bunday kengayishi nafaqat sanoat va infratuzilma, balki mehnat migratsiyasi va professional ta’lim yo‘nalishida ham yangi istiqbollarni ochmoqda. Shu bois, tashrif davomida Germaniya Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi hamda Germaniyaning mas’ul tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilayotgan maqsadli loyihalar haqida ma’lumot berildi. Bu jarayonda yoshlarni ish bilan ta’minlash va ularning kasbiy mahoratini oshirish masalasiga alohida urg‘u berildi.

Mazkur loyihalar o‘zbekistonlik yoshlarga nemis tili va ularga kasbiy standartlarni puxta o‘rgatish orqali ularning Germaniyadagi yetakchi sanoat, qurilish, tibbiyot, transport va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida qonuniy hamda xavfsiz mehnat faoliyatini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan. Bu esa mamlakatimizda yoshlar bandligini ta’minlash va ularning jahon mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda.

> **Oliy martabali mehmon ikki davlat o‘rtasidagi mehnat migratsiyasi sohasidagi tizimli tashabbuslar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlariga alohida qiziqish bildirdi.**

Bugungi kunda Germaniyaning 38 ta yirik sherik-ish beruvchi tashkiloti bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri izchil aloqalar o‘rnatilgan. Aynan shu hamkorlik natijasida nemis mehnat bozorida o‘zbekistonlik mutaxassislar uchun 73 mingdan ortiq bo‘sh ish o‘rni taklif qilingan bo‘lib, hozirgi kungacha ushbu yo‘nalishda 5 ming 500 nafar fuqaro germaniyalik ish beruvchilarga biriktirildi.

Tashrif doirasida ayniqsa tibbiyot va sog‘liqni saqlash yo‘nalishidagi qo‘shma loyihalar alohida e’tirof etildi.

Germaniya Prezidenti nemis tili va kasb-hunar sirlarini o‘rganib, Germaniyaga ishga ketishga tayyorgarlik ko‘rayotgan o‘zbekistonlik yoshlar bilan samimiy muloqot qildi. Yoshlarning bilimga bo‘lgan intilishi va nemis tilini mukammal egallagani yuqori baholandi.

Shu bilan Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning O‘zbekistonga tashrifi yakunlandi.

**I.AVVALBOYEV,**
**M.HOJIAKBAROVA,**
**B.XUDOYBERDIYEV,**
**O‘zA muxbirlari**

## Frank-Valter SHTAYNMAYER:

# “SAMIMIY MULOQOTLAR O‘ZARO MUNOSABATLARGA YANGI SUR’AT BAG‘ISHLADI”

**Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer O‘zbekistonga ikki kunlik rasmiy tashrifi bo‘yicha ommaviy axborot vositalari vakillariga oliy darajadagi O‘zbekiston — Germaniya sammiti yakunlari yuzasidan intervyu berdi.**

— O‘zbekistonga tashrifimiz davomida bizni an’anaviy o‘zbekona mehmondo‘stlik bilan kutib olishdi. Bugun esa biz o‘ziga xos bir voqeaning guvohi ham bo‘ldik. O‘zbekiston milliy futbol terma jamoasi mustaqillikning 35 yili mobaynida ilk bor jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritgani bilan butun mamlakat haqli ravishda faxrlanmoqda.

Millionlab insonlar muxlislik qilgan birinchi o‘yin kutilganidek kechmadi, biroq oldinda guruh bosqichining yana ikkita uchrashuvi bor. Biz jamoaga chin dildan muvaffaqiyat tilaymiz va uning musobaqada yanada olg‘a borishiga umid qilamiz.

Ayni damda biz Islom sivilizatsiyasi markazi yonida turibmiz. Uning nomiga e’tibor bering — gap din haqida emas, aynan sivilizatsiya haqida bormoqda. Bu Markaziy Osiyoning islomgacha va islom davri tarixi haqida ta’sirchan tarzda hikoya qiluvchi yirik ilmiy-ma’rifiy markazdir.



> **Bu ko‘p jihatdan mintaqaning o‘ziga xos geografik joylashuvi bilan ham bog‘liq. Markaziy Osiyo yigirma yildan ortiq vaqtdan buyon e’tiborimni tortib keladi. Germaniya nuqtayi nazaridan, bu mintaqa Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi eng muhim ko‘prikdir.**

Albatta, biz bu yerga faqat mamlakatning boy madaniyati va tarixi bilan tanishish uchun kelmadik. Tashrifning birinchi kunida asosiy e’tibor O‘zbekiston Prezidenti bilan bo‘lgan muzokaralarga qaratildi. Biz siyosiy hamkorlikni yanada mustahkamlash, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish istiqbollarini, ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi aloqalarni chuqurlashtirish yo‘llarini muhokama qildik.

Germaniya texnologiyalari O‘zbekistonda yaxshi tanilgan va yuksak qadrlanadi. Ko‘plab nemis kompaniyalari mamlakat iqtisodiyoti rivojiga allaqachon salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda. Ayni paytda hamkorlik salohiyati hali to‘la ishga solinmagan. Aynan shuning uchun ham men bu yerga nufuzli ishbilarmonlar delegatsiyasi hamrohligida kelishni muhim deb hisobladim.

Tashrifimiz arafasida O‘zbekiston idoralari, korxonalari va nemis kompaniyalari o‘rtasida qator muzokaralar bo‘lib o‘tdi va ularning natijasida yangi kelishuvlar imzolandi. “Volkswagen” kompaniyasi O‘zbekistonda ishlab chiqarish korxonasini qurish va ishga tushirish to‘g‘risida qaror qabul qilganini mamnuniyat bilan qayd etaman.

“Rhenus” kompaniyasi yirik logistika markazi loyihasini amalga oshirayotgan bo‘lsa, “Henkel” mamlakatdagi sarmoyaviy ishtirokini kengaytirmoqda. Bular Germaniya biznesining O‘zbekistonga qiziqishi ortib borayotganini yaqqol ko‘rsatuvchi bir nechta misol, xolos.

Bu ko‘p jihatdan mintaqaning o‘ziga xos geografik joylashuvi bilan ham bog‘liq. Markaziy Osiyo yigirma yildan ortiq vaqtdan buyon e’tiborimni tortib keladi. Germaniya nuqtayi nazaridan, bu mintaqa Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi eng muhim ko‘prikdir. O‘zbekiston o‘zining bog‘lovchi bo‘g‘in sifatidagi rolini doimo anglab kelgan va ana shu strategik ustunlikka tayanib, izchil siyosat yuritgan.

Xalqlar o‘rtasidagi aloqalarga kelsak, yaqin yillarda ular faqat kengayib borishiga ishonchim komil. Bunga o‘zbekistonlik malakali mutaxassislarga Germaniyada osonroq ishga joylashish imkonini beradigan Migratsiya va mobillik to‘g‘risidagi yangi bitim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday imkoniyatlarga qiziqish ancha yuqori. O‘zbekiston aholisi har yili taxminan bir million kishiga ko‘paymoqda. Ko‘plab yoshlar uchun kasbiy kamolotga erishish nafaqat ichki mehnat bozori, balki xorijda ishlash istiqbollari bilan ham bog‘liq.

Shu bilan birga, bugungi kunda Germaniya yagona yo‘nalish emas. Butun dunyoda malakali kadrlar uchun raqobat ketmoqda va biz bu haqiqatni inobatga olishimiz zarur. Biroq bizning mavqeimiz ancha mustahkam ko‘rinadi. Hozirgi vaqtda 400 mingdan ortiq O‘zbekiston fuqarosi nemis tilini o‘rganmoqda va Germaniyaga qiziquvchilar soni ortishda davom etyapti.

Avval ham ta’kidlaganimdek, Markaziy Osiyo yigirma yildan ziyod professional faoliyatimda alohida o‘rin tutadi. 2006-yili Germaniya tashqi ishlar vaziri lavozimida ishlayotganimda ushbu mintaqa bilan yanada faolroq hamkorlik qilish tashabbusini ilk bor ilgari surgan edim. O‘sha paytlarda biz va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi aloqalar ancha cheklangan, mintaqa davlatlarining o‘zaro munosabatlari esa murakkabligicha qolayotgan edi.

Keyinchalik, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga nisbatan faolroq siyosatini shakllantirishda ishtirok etishga muvaffaq bo‘ldim. Bundan juda mamnunman. Shu bois, bu yerga muntazam kelib, yuz berayotgan o‘zgarishlarni diqqat bilan kuzatib bordim.

Bugun yigirma yillik tajribaga tayanib, ro‘y bergan o‘zgarishlar ko‘lamiga xolis baho bera olaman. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, O‘zbekistonda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘tgan yillar davomida mamlakat siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni ishonch bilan rivojlantirish mumkin bo‘lgan ishonchli va doimiy hamkorga aylandi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Markaziy Osiyo Yevropa uchun nima sababdan alohida ahamiyat kasb etdi degan savolga javoban quyidagilarni qayd etmoqchiman. O‘tgan yigirma yil ichida ulkan yo‘l bosib o‘tildi. Dastlab yaqinlashish jarayoni oson kechmagan bo‘lsa-da, bugungi kunda natijalar ko‘zga yaqqol tashlanib turibdi. Ushbu tashrif va O‘zbekiston rahbariyati bilan o‘tgan samarali muzokaralar o‘zaro ishonch va hamkorlik yuksak darajada ekanini ko‘rsatmoqda.

Fikrimcha, bugungi kunda iqtisodiyot, savdo-sotiq, sarmoya, ta’lim, ilm-fan va madaniy almashinuv sohalarida hamkorlikni yanada kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratilgan. Aynan shu sababli, ushbu safar yakunlari bo‘yicha Germaniya, Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarning kelgusida yanada mustahkamlanishiga katta ishonch bilan qarayman.

Shu bois, ushbu tashrifni aynan shu yerda, O‘zbekistonda yakunlayotganimdan chin dildan mamnunman. Biz siyosiy muloqotni rivojlantirish borabarida xalqlarimiz o‘rtasidagi insoniy rishtalarni mustahkamlashga ham o‘z hissamizni qo‘shmoqdamiz.

**“Dunyo” AA**




Kun mavzusi

# TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMI

## 42 TRILLION DOLLARLIK AKTIVGA EGA XORIJ KOMPANIYALARI MAMLAKATIMIZDA



**Poytaxtimiz navbatdagi tarixiy sammit — V Toshkent xalqaro investitsiya forumiga mezbonlik qilmoqda. Yil davomida kutilgan va katta tayyorgarlik ko‘rilgan muhim iqtisodiy tadbirda ishtirok etish uchun yurtimizga dunyoning 100 dan ortiq davlatidan 4 mingga yaqin xorijlik delegat kelganining o‘ziyoq uning ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Nufuzli mehmonlar qator davlat va hukumatlar rahbarlari, yirik moliya tashkilotlari, taniqli brend va kompaniyalar egalaridan iborat.**

Ular orasida BlackRock, Coca-Cola, Veolia, JAC Motors, John Deere, TBC Bank, SOCAR kabi yuzlab dunyo gigantlarini uchratish mumkin. Mazkur brendlar vakillarini O‘zbekistonga bir maqsad — V Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish istagi chorladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, ishtirokchi kompaniyalarning umumiy aktivlari 42 trillion dollarni tashkil etadi. Bu jahon yalpi ichki mahsulotining 38 foizi degani.

Mazkur raqamlar bu yilgi Toshkent xalqaro investitsiya forumida qayd etilgan yagona rekord ko‘rsatkich emas. Forumning yubiley sanasida deyarli barcha raqamlar yangilandi. Xususan, sammitda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tganlar soni 8,3 ming nafardan oshgan bo‘lsa, real sektorda 2,5 mingdan ziyod kompaniya rahbarlari qatnashmoqda. Bu o‘tgan yildagidan ikki barobar ko‘p, aynan shuning o‘zi jahon global biznes vakillarining mazkur tadbirga qiziqishi hamda mamlakatimiz investitsion jozibadorligi tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

— Forumning yuksak siyosiy nufuzini unda 62 ta hukumat delegatsiyasi ishtirok etayotgani ham yaqqol tasdiqlaydi, — deydi O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri Laziz Qudratov. — Bu o‘tgan yildagidan deyarli uch barobar ko‘p. Qolaversa, V Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimida 10 ga yaqin davlat va hukumat rahbari nutq so‘zlagani xalqaro sammitning besh yillik ishidagi tarixiy voqelikdir.

Bu yil ishtirokchilar soni ham, nufuzi ham ancha oshgan. Ro‘yxatdan o‘tganlarni tahlil qilganimizda, ilk bor AQSHdan ham o‘nlab yirik biznes egalari kelayotganiga guvoh bo‘ldik. Bu tadbirga qiziqish ortib borayotganini tasdiqlaydi. Qolaversa, unga xalqaro moliya tashkilotlari va tijorat banklarining 370 dan ortiq vakili jalb etilgan. Forum ishini mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillaridan tashqari dunyoning 41 mamlakatidan kelgan 200 dan ortiq xorijlik jurnalist faol yoritmoqda. Ular orasida Bloomberg, Reuters, Nikkei, Euronews, BBC News, CGTN, TRT, The Independent, Xinxua singari nufuzli xalqaro axborot agentliklari ham bor.

Umuman, mazkur yirik tadbir mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun katta imkoniyat, shu bilan birga, biz uchun jiddiy mas’uliyat hamdir. Forumdan kutayotgan natijalarimiz yuqori. Uch kunlik tadbirlar doirasida o‘n milliardlab dollarlik yangi investitsiya bitimlari imzolanishi kutilyapti. Buning uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi, tadbirlar davomida imzolanadigan yirik loyihalar ham tayyorlangan. Bundan tashqari, mahalliy tadbirkorlarimiz, hududiy tarmoqlardan umumiy qiymati 82 milliard dollarlik taklif va loyihalar olingan. To‘g‘ri, bu ushbu loyihalarning hammasi imzolanadi, degani emas. Ularni saralab, investorlarga taqdim etyapmiz, ularda qiziqish uyg‘otgan loyihalar bo‘yicha keyingi kelishuvlar belgilanadi.

### Amerika biznesining rekord darajadagi ishtiroki

Forum ishtirokchilari qatorida o‘zimiz bilgan jahonga mashhur brendlar nomlarini ko‘rib, hayratlanmay ilojimiz yo‘q. Bunday yirik kompaniyalarni mamlakatga chorlash u yoqda tursin, o‘zaro aloqalarni o‘rnatishning o‘zi oson emas. Ammo bugun xorijlik investorlarning o‘zi yurtimizga katta qiziqish bilan kelyapti. Bu yil ularning orasida AQSHlik ishbilarmonlar ko‘pchilikni tashkil etayotgani mamlakatimizning rivojlanayotgan iqtisodiyoti global maydonda allaqachon ishonch uyg‘ota olgani, investitsion jozibadorligi oshib borayotganining yaqqol isboti.

Toshkent xalqaro investitsiya forumi esa har yili minglab chet ellik tadbirkorlarning mamlakatimiz iqtisodiy imkoniyatlari bilan tanishishi, mahalliy korxonalar vakillari bilan muloqot qilib, hamkorlik o‘rnatishi uchun sharoit yaratmoqda, faol platformaga aylanyapti. O‘tgan besh yil ichida ushbu forum shunchaki muloqot maydonidan chiqib, butun Markaziy Osiyo mintaqasining investitsion jozibadorligini namoyon etayotgan yirik tadbir sifatida e’tirof etilmoqda. Forumning maqsadi ham shunday — muloqotlar aniq amaliy hamkorlikka aylanishi, xorijlik investorlarni mintaqa mamlakatlari bilan faol bog‘lashi kerak.

Poytaxtimizdagi CAEx ko‘rgazmalar majmuasi ayni jarayonlarning qoq markaziga aylangan. Boisi, V Toshkent xalqaro investitsiya forumining o‘nlab uchrashuvlari ayni shu yerda o‘tkazilmoqda. Bu yilgi dasturdan o‘rin olgan tadbirlar soni 36 tadan 79 taga oshirildi. Ishtirokchilar panel munozaralar, investitsion pitch sessiya, davra suhbatlari, biznes muloqotlarda qatnashmoqda. AQSH, Xitoy, Turkiya, Ozarbayjon, Saudiya Arabistoni kabi qator davlatlar vakillari ishtirokida ikki tomonlama biznes-forumlar o‘tkazilyapti. Ularda mintaqamiz va global maydondagi eng dolzarb masalalar muhokama qilinmoqda. Jumladan, sanoatni rivojlantirish, “yashil” energetika, Markaziy yo‘lak imkoniyatlari, raqamli boshqaruv, sun’iy intellekt, islom moliyasi va oziq-ovqat xavfsizligi masalalariga alohida e’tibor qaratilyapti. Spikerlar esa xalqaro toifadagi nufuzli mutaxassislardan iborat.

— Forumda AQSHning 193 ta kompaniyasi ishtirok etyapti va bu mamlakatlarimizning ikki tomonlama munosabatlari tarixidagi eng yirik biznes delegatsiya ishtiroki, rekord ko‘rsatkich sifatida baholanmoqda, — deydi AQSH Xalqaro taraqqiyot moliya korporatsiyasi (DFC) bosh direktori Ben Blek. — Bu Amerika biznesi O‘zbekistonni nafaqat istiqbolli bozor, balki uzoq muddatli sarmoyaviy hamkor sifatida ko‘rayotganiga ishoradir. Qolaversa, Markaziy Osiyo 100 milliondan ortiq aholiga ega jadal rivojlanayotgan mintaqa bo‘lib, O‘zbekiston undagi asosiy figuraga aylangan. Biz mamlakatda ulkan iqtisodiy salohiyatni ko‘rib turibmiz va faol hamda uzoq muddatli hamkorlikka tayyormiz. Ko‘plab sohalar bizni qiziqtiryapti. Hatto biznes-forum doirasida sanoat, neft va gaz, moliya, aviatsiya, sun’iy yo‘ldosh aloqasi, raqamli infratuzilmani rivojlantirish yo‘nalishlarida ikki tomonlama hamkorlik bitimlari imzolandi.

### Tadbirkorlar uchun yangi format

Xalqaro forumning asosiy tadbirlaridan biri Milliy investitsiya ko‘rgazmasi bo‘lib, bu yil ikkinchi bor o‘tkazilmoqda. CAEx ko‘rgazmalar maydoni ayni tadbir ruhida bezatilgan. Umumiy ekspozitsiyaning markazida mamlakatimizda qad rostlagan yangi va zamonaviy olimpiya shaharchasi ramzi aks etib turibdi. Uning tagida esa Yangi Toshkent shahrining katta maketi joylashtirilgan. Xorijlik mehmonlar e’tiborini tortayotgan bu majmuadagi aksariyat loyihalarda chet ellik investorlarning o‘zlari ham ishtirok etayotir.

Bu yilgi ko‘rgazma avvalgisidan farqli. Maydon bo‘ylab birorta mahsulotni uchratmaysiz, ular eng zamonaviy monitorlarda elektron tarzda namoyish etilyapti. Jarayonda interaktiv formatlarga urg‘u berilib, zamonaviy texnologiyalarning eng ilg‘or yutuqlaridan foydalanilgan. Har bir stendda ko‘rsatilgan maxsus QR-kod orqali elektron platformaga kirish va mahsulotlar katalogi bilan tanishish mumkin. Bularning hammasi internet tarmog‘i orqali amalga oshiriladi va bu borada mehmonlarga qiyinchilik tug‘ilmaydi. Boisi, ko‘rgazma maydoniga kirgan har bir kishining mobil qurilmasi avtomatik tarzda Wi-fi tarmog‘iga ulanadi.



— Zamonaviy yondashuvning qulay tomoni — tadbirkorlar avvalgidek mahsuloti namoyishi bilan ovora bo‘lib qolmay, asosiy e’tiborini investorlar bilan muloqot qilish, o‘z loyihalarini tanishtirishga qaratyapti, — deydi “Yarentextil Fotima” MCHJ rahbari Fotima Qurbonova. — Xalqaro tajribada ham xorijliklar avval mahsulotlar bilan onlayn tanishishi ommalashgan. Ma’qul kelsa, hamkorlik bosqichiga o‘tadi. Investorlarni topish, ular bilan muloqot qilishga kelsak, bevosita yurtimizdagi qator mas’ullar bunda tadbirkorlarga yaqindan ko‘maklashyapti. Qolaversa, aynan ishbilarmon ayollar uchun investorlar bilan sessiya ham tashkil etildi. Unda xorijliklarga loyihalarimizni taqdimot qildik. Bunday ko‘rgazmalar yangi hamkorlar topishga katta yordam beradi. Masalan, o‘tgan yilgi Toshkent xalqaro investitsiya forumida hunarmandlik mahsulotlarimizni Nyu-Yorkka eksport qilish bo‘yicha kelishuvga erishganmiz va ilk bor Amerika bozoriga kirib bordik. Bu yil ham rejalarimiz katta, chunki dunyoning 100 dan ortiq davlatidan kelgan minglab investorlar hazil gap emas. Bu yangi loyihalar uchun juda katta imkoniyat degani.

Bu yilgi investitsiya forumida mahalliy tadbirkorlarni xorijlik investorlar bilan bog‘lash, ularning hamkorlik o‘rnatishiga ko‘maklashishga alohida urg‘u berilyapti. Hatto yurtimiz biznes doira vakillariga loyihalarini investorlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri taqdimot qilish imkoniyati yaratildi. Ilk bor tadbirkorlarning investorlar bilan muloqoti uchun sohalar bo‘yicha maxsus sessiyalar tashkil etilgan. Mazkur yangi format orqali forumda ishtirok etayotgan 3 mingdan ziyod mahalliy ishbilarmonni xorijlik biznesmenlar bilan faol bog‘lash hamda aniq natijadorlikka erishish maqsad qilingan.

— Bu yilgi forumda tumanimizdagi bir qancha tadbirkorlar bilan ishtirok etyapmiz, — deydi Samarqand viloyati Ishtixon tumani hokimi Fazliddin Ro‘ziyev. — Ularning qiziqishi, ishtiyoqi juda baland. Chunki bu forum nafaqat investorlar, yangi hamkorlar topish, balki mahalliy mahsulotlarimizni yangi bozorlarga eksport qilish uchun ham juda katta platforma. Aynan investitsion loyihalar eksportni ham, ishlab chiqarishni ham, hududlar rivoji, yangi ish o‘rinlari yaratishni ham oshiradi. O‘tgan yili Ishtixon tumaniga 70 million dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kiritilgan bo‘lsa, bu yil marrani 170 million dollar qilib belgilab olganmiz. Forum davomida xorijlik investorlar tumanimizning drayver tarmoqlaridan bo‘lgan uzumchilik, qurilish materiallari, turizm yo‘nalishlaridagi loyihalarga qiziqish bildiryapti. Muloqotlar qizg‘in kechmoqda, dastlabki kelishuvlarga ham erishdik. Bu yil forumda mahsulotlar, loyihalar aynan elektron formatda namoyish etilayotgani qulaylik yaratyapti. Dunyoning ko‘plab davlatlarida ko‘rgazmalar shu tarzda tashkil etiladi. Bugun ko‘rgazma maydonida o‘rnatilgan stendlar jahon standartlariga to‘la javob beradi. Elektron namoyishlarga qiziqish bildirgan investorlar bilan muzokaralar o‘tkazyapmiz, ularni mahsulotlar bilan real tanishtirish uchun hududlarga taklif qilyapmiz.

Ya’ni milliy ko‘rgazma shunchaki namoyish maydoni vazifasini bajarmay, bevosita investitsiya loyihalarini imzolashga xizmat qilishi ko‘zda tutilgan. Mahalliy ishbilarmonlar orasida yangi ish boshlagan, avval xorijga chiqmagan, eksport va hamkorlik masalalarida tajribasi yetarli bo‘lmaganlari ham bor. Shu bois, bu borada ularga har bir hududdan kelgan hokimliklar va tegishli tashkilotlar vakillari faol ko‘maklashyapti.

### Sarmoyadorlar sport maydonida

V Toshkent xalqaro investitsiya forumi bu gal ana shunday yangiliklarga boy tarzda o‘tmoqda. Rasmiy uchrashuvlardan tashqari norasmiy muhitdagi muloqotlar yo‘lga qo‘yilgani xorijlik investorlarda ham qiziqish uyg‘otyapti. Xususan, forum tarixida ilk bor ishbilarmonlik dasturi nufuzli sport tadbirlari bilan boyitildi. Rasmiy majlis zallaridan tashqariga olib chiqilgan bunday uchrashuvlar hamkorlarga yanada qulay tanishuv imkoniyatini yaratdi.

Xususan, yirik investor va xorijiy delegatlar, mahalliy tadbirkorlar, davlat idoralari vakillari forum doirasida tashkil etilgan tennis turniri hamda yugurish marafonida uchrashdilar. Dastlab ishtirokchilar 15-iyun kuni Olimpiya shaharchasida o‘tkazilgan “TIIF Open” yirik tennis turnirida yakkalik va juftlik formatida kuch sinashgan bo‘lsa, keyingi kuni “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida bo‘lib o‘tgan marafonda 3 va 10 kilometr masofaga yugurishdi. E’tiborlisi, sport tadbirlari Masdar, The Coca-Cola Company, Halyk Bank kabi jahonning eng yirik kompaniyalari ko‘magida o‘tkazilib, mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Bunday loyihalar forumning strategik va ijtimoiy ahamiyatini ham namoyon etadi. Qolaversa, hozir zamonaviy sport diplomatiyasi rivojlanib, ishbilarmonlik aloqalarini o‘rnatishga xizmat qilmoqda. Turli avlod va davlatlar vakillarining sport maydonlaridagi birlashuvi umumiy hamkorlik munosabatlarini ham rivojlantiradi. Do‘stona muhit nafaqat bugun qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar samarasi, balki uzoq yillar davom etadigan hamkorlik aloqalarida aks etadi.

V Toshkent xalqaro investitsiya forumi ana shunday mustahkam iqtisodiy aloqalarga zamin yaratmoqda. Uch kun davom etadigan forum doirasida 10 milliardlab dollarlik yirik investitsiyaviy bitim va shartnomalar imzolanishi kutilyapti. Loyihalar bevosita yurtimiz hududlariga kirib borib, iqtisodiy rivojlanish, aholi farovonligi va turmush tarzini oshirishga xizmat qiladi.

**Iroda TOSHMATOVA,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# IQTISODIY DIPLOMATIYANING SAMARALI PLATFORMASI

Nuqtayi nazar

**Bugun jahon iqtisodiyoti keskin o‘zgarishlar, geosiyosiy murakkabliklar va yangi iqtisodiy chaqiriqlar sharoitida rivojlanmoqda. Bunday vaziyatda har bir davlat o‘z iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, yangi investitsiyalarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali raqobatbardoshligini oshirishga intiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Toshkent xalqaro investitsiya forumi nafaqat O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etayotgan nufuzli xalqaro tadbirga aylandi.**



**Jamila BOBONAZAROVA,**
**Oliy Majlis Senati a’zosi**

Mamlakatimizdagi ochiqlik siyosati, investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash va tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar amaliy samara bermoqda. Buning yorqin tasdig‘ini har yili yuqori saviyada tashkil etilayotgan ushbu forum misolida ham ko‘rish mumkin.

Toshkent xalqaro investitsiya forumi so‘nggi yillarda mamlakatimiz investitsiya siyosatida muhim o‘rin egallamoqda. Forum turli mamlakatlarning davlat arboblari, xalqaro moliya institutlari rahbarlari, yirik korporatsiyalar, investitsiya kompaniyalari, banklar va biznes doiralari vakillarini birlashtirmoqda.

Bu forum orqali O‘zbekiston iqtisodiy imkoniyatlari, tizimli islohotlari va kelgusi taraqqiyot strategiyasini xalqaro hamjamiyatga namoyish etmoqda. Eng muhimi, mazkur maydon orqali yuzlab istiqbolli loyihalar bo‘yicha kelishuvlarga erishilmoqda, milliardlab dollarlik investitsiyalar mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinmoqda.

Bugun xalqaro ekspertlar O‘zbekistonni Markaziy Osiyodagi eng jozibador investitsiya platformalaridan biri sifatida e’tirof etayotgan bo‘lsa, bu avvalo, Prezidentimizning puxta o‘ylangan iqtisodiy siyosati natijasidir.

Har qanday davlat taraqqiyoti investitsiyalar hajmi va samaradorligi bilan bevosita bog‘liq. Yangi ishlab chiqarish quvvatlari, zamonaviy texnologiyalar, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan korxonalar va yangi ish o‘rinlari aynan investitsiyalar hisobiga tashkil etiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonga jalb qilinayotgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi bir necha barobar oshdi. Bu jarayonda mazkur forum muhim katalizator vazifasini bajarmoqda. Binobarin, forum doirasida “yashil” energetika, sanoat, transport-logistika, raqamli texnologiyalar, qishloq xo‘jaligi, turizm, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida ko‘plab yirik loyihalar bo‘yicha kelishuvlar imzolanmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlar kesimida muvozanatli rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha erishilayotgan natijalar alohida e’tiborga loyiq.

Joriy yilgi forum doirasida Prezidentimizning dunyodagi yetakchi kompaniyalar rahbarlari bilan o‘tkazgan uchrashuvlari mamlakatimizga ishonch tobora ortib borayotganini yana bir bor namoyon qildi. Xususan, Saudiya Arabistonining yirik kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyan bilan bo‘lib o‘tgan muloqotda energetika, transport, infratuzilma, turizm va sog‘liqni saqlash sohalaridagi hamda rejalashtirilayotgan loyihalar muhokama qilindi. Bu kabi muloqotlar mamlakatimizga yangi investitsiyalar kirib kelishini ta’minlash bilan birga zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or boshqaruv tajribalarini jalb qilish imkonini ham yaratadi.

Shu ma’noda, forumni faqat kelishuvlar imzolanadigan maydon emas, balki ishonch, muloqot va strategik sheriklik platformasi sifatida baholash to‘g‘ri bo‘ladi.

Ushbu forum mamlakatimiz xalqaro imijini mustahkamlashda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bir necha yil avval xalqaro biznes doiralari O‘zbekiston haqida cheklangan ma’lumotga ega bo‘lgan, bugun esa mamlakatimiz jahon iqtisodiy xaritasida faol investitsiya markazlaridan biri sifatida tilga olinmoqda. Bu mamlakatimizda keyingi yillardagi tub yangilanishlar bilan bog‘liq. Ishtirokchilar aynan shu o‘zgarishlarni yuqori baholab, O‘zbekistonni uzoq muddatli investitsiyalar uchun ishonchli hamkor sifatida ko‘rmoqda.

Investitsiyalarni jalb qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilashdangina iborat emas. Eng muhim vazifa aholi farovonligini oshirishdir.

Forum natijasida amalga oshirilayotgan loyihalar mamlakatimizning barcha hududini qamrab olmoqda. Yangi sanoat zonalari, “yashil” energetika obyektlari, logistika markazlari, mehmonxonalar, ta’lim va tibbiyot muassasalari qurilmoqda. Bu esa o‘n minglab yangi ish o‘rinlari ochilishi, aholi daromadining o‘sishi, mahalliy tadbirkorlik rivojlanishi, eksport imkoniyatlarining kengayishi, hududlar iqtisodiy faolligining oshishiga xizmat qilmoqda.

Shu jihatdan qaraganda, Toshkent xalqaro investitsiya forumining samarasi har bir oila va har bir mahalla hayotida o‘z aksini topayotganini ko‘rish mumkin.

Umuman olganda, Toshkent xalqaro investitsiya forumi bugun yangi O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati, ochiq va pragmatik tashqi iqtisodiy siyosati, xalqaro hamkorlikka qat’iy intilishini namoyon etayotgan eng muhim xalqaro platformalardan biriga aylandi. Shubhasiz, kelgusi yillarda ham mamlakatimiz taraqqiyotining muhim drayverlaridan biri bo‘lib qoladi va barqaror iqtisodiy yuksalishga munosib hissa qo‘shadi.

2026-yil 19-iyun, 123-son



**Jahon tajribasi ko‘rsatmoqdaki, nodir metallardan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot bahosi xomashyodan ancha yuqori bo‘ladi. Shuning uchun chuqur qayta ishlash faqat sanoat uchun zarur omil bo‘libgina qolmay, mamlakatning eksport salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan strategik vazifaga aylanmoqda.**

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

**O‘zbekiston zamini shu qadar saxovatliki, uning qa’rida Mendeleyev davriy jadvalidagi barcha elementlarni topish mumkin. Shu jumladan, o‘nlab turdagi foydali qazilmalar va nodir metallarni ham. Faqat resurslarning o‘zigina daromad manbaiga aylana olmaydi. Bugungi kunda xomashyoni zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilgan, ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etib, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan mamlakatlargina yuqori samaradorlikka erisha oladi.**

Sanoat

# MUHIM MINERALLAR – GLOBAL RAQOBATNING HAL QILUVCHI OMILI

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Dunyoda texnologik metallar va muhim minerallarga talab keskin ortmoqda. Elektrotexnika, mashinasozlik, aviatsiya, energetika, tibbiyot va boshqa yuqori texnologiyali tarmoqlar uchun zarur bunday xomashyo va mahsulotlar iqtisodiy xavfsizlik hamda sanoat raqobatbardoshligi ustuni bo‘lib bormoqda.

Xalqaro tahlil markazlari xulosasiga ko‘ra, muhim minerallar global texnologik raqobatning hal qiluvchi omillaridan biriga aylanyapti. Ayni paytda mamlakatlarning energetik yangilanish, raqamlashtirish va yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish borasidagi maqom va mavqei ko‘p jihatdan ularning nodir va texnologik metallarni yetkazib berish zanjirini qanchalik nazorat qilishiga qarab belgilanmoqda.

Bu yo‘nalishda to‘laqonli sanoatlashgan ekotizimni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda qo‘shilgan qiymatning salmoqli qismi asosan mamlakatning o‘zida yaratiladi. Mana shunday yondashuv eksport tushumlari barqaror o‘sishini ta’minlab, iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshiradi.

Ayni maqsadda mamlakatimizda joriy yilning o‘zida 166 million dollarlik 12 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan. Natijada yuqori soflikdagi selen, tellur va reniy kabi 3 turdagi yangi metall, kukun metallurgiyasi asosida avtodetallar singari 21 turdagi import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar hamda sulfat kislotasi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, yangi quvvatlar hisobidan yuzlab ish o‘rinlari yaratiladi, byudjet tushumlari va eksport imkoniyatlari ortadi.

15-iyun kuni Prezidentimiz huzurida sanoat uchun muhim minerallar xomashyo bazasini rivojlantirish hamda yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish yuzasidan bo‘lib o‘tgan taqdimotda bu yo‘nalishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalar muhokama qilindi.





— Mamlakatimizda bu yo‘nalishda katta salohiyat bor, — deydi tog‘-kon sanoati va geologiya vazirining birinchi o‘rinbosari Feruza Hamidova. — Bugun biz davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2024-yilda tashkil etilgan O‘zbekiston texnologik metallar kombinatining investitsion loyihalarini taqdimot qildik. Hozirgi vaqtda mazkur korxonaning asosiy faoliyati volfram va molibden ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, yangi konlarni o‘zlashtirish, boyitish fabrikalari, gidro va pirometallurgiya zavodlarini qurish orqali 28 turdagi muhim minerallarni sanoat darajasida ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Ushbu salohiyatni to‘liq ishga solish maqsadida 2026-2030-yillarda umumiy qiymati 4,2 milliard dollarlik 120 ta loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Bu orqali tarmoq hajmini 2028-yilgacha 1 milliard dollarga, 2030-yilgacha 2 milliard dollarga yetkazish imkoniyati bor.

Yig‘ilishda volfram va molibden bo‘yicha “xomashyo — qayta ishlash — tayyor mahsulot” zanjirini tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi. Bu orqali faqat konsentrat yoki yarim tayyor mahsulot emas, balki yuqori qo‘shilgan qiymatga ega metall kukunlari, qotishmalar, sterjenlar, simlar, sanoat uchun detallar va boshqa tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsad qilingan.

Jahon tajribasi ko‘rsatmoqdaki, nodir metallardan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot bahosi xomashyodan ancha yuqori bo‘ladi. Shuning uchun chuqur qayta ishlash faqat sanoat uchun zarur omil bo‘libgina qolmay, mamlakatning eksport salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan strategik vazifaga aylanmoqda.

Buning uchun Chirchiq shahrida “Kelajak metallari” texnoparki va R&D markazi faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish belgilangan. U yerda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, yuqori soflikdagi metallar va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur sharoit yaratiladi.

— Yig‘ilishda strategik va muhim minerallar sohasini yangi bosqichga olib chiqish, qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish tizimini yanada kuchaytirish borasida qator vazifalar belgilandi, — deydi “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” AJ boshqaruvi raisi Farhod Abdullayev. — Asosiy maqsad O‘zbekistonni xomashyo yetkazib beruvchi mamlakatdan kritik minerallar bo‘yicha mintaqaviy texnologik ishlab chiqarish va eksport markaziga aylantirish. Har qanday soha rivoji uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalasi muhim ahamiyatga ega. Ayni maqsadda Toshkent davlat texnika universiteti bilan dual ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Texnologik metallar kombinatida metallurgiya va materialshunoslik bo‘yicha 2 ta kafedra faoliyat ko‘rsatmoqda.

Davlatimiz rahbari bu yo‘nalishda dual ta’lim qamrovini kengaytirish, o‘quv dasturlarini yangi loyihalar ehtiyojiga moslashtirish va bitiruvchilarni yuqori texnologik ishlab chiqarishlarga yo‘naltirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Yana bir muhim jihat. Chirchiq shahrida tashkil etilayotgan, Markaziy Osiyoda muhim minerallar bo‘yicha yagona ilmiy-tadqiqot va texnologik markaz — nanotahlil laboratoriyasi geologiya, konchilik va metallurgiya loyihalari uchun zamonaviy tahlil xizmatlarini ko‘rsatadi. Natijada bugun xorijda bajarilayotgan tahlillar mahalliylashtiriladi hamda muddatlar qisqaradi. Misol uchun, ikki oyda bajariladigan ishlar bir haftada tayyor bo‘ladi. Laboratoriya to‘liq ishga tushgach, bir kunda mingtagacha namuna tahlil qilinib, 6,5 million dollarlik import xizmatlari mahalliylashtiriladi, yana 4 million dollarlik xizmatlar eksporti yo‘lga qo‘yiladi.

Shu bilan birga, tarmoqda raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish zarurligi ta’kidlandi. Geologik ma’lumotlarni yagona raqamli bazaga jamlash, qidiruv ishlarini 3D modellashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida nazorat qilish, bozor tahlili va loyihalar boshqaruvini zamonaviy platformalar orqali tashkil etish vazifalari belgilandi.

Ishlab chiqarish jarayonlari jadal sur’atda murakkablashib borayotgan sharoitda bunday ilmiy-texnologik infratuzilmani yaratishning ahamiyati yanada ortadi. Zero, bugun metallurgiyadagi raqobatbardoshlik faqat resurslarga ega bo‘lish bilan emas, balki tadqiqotlarning saviyasi, darajasi va natijadorligi, muhandislar mahorati hamda milliy texnologiyalarning nechog‘liq takomillashgani bilan bog‘liq.

Taqdimotda belgilangan vazifalar mamlakatimizning strategik minerallar bo‘yicha texnologik mustaqilligini ta’minlash, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va kritik minerallar global bozorida ishonchli ishtirokchiga aylantirishga zamin yaratadi.

**Lutfulla SUVONOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



Hududlarda

# TASHABBUSDAN NATIJAGA

**Hududlar rivoji, avvalo, aholining farovon turmush tarzini ta’minlashga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbarining joriy yil birinchi choragi yakunlariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida iqtisodiy o‘sishni yanada oshirish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalardan maqsad-muddao ham shu. Xo‘sh, bu boradagi ishlar Surxondaryo viloyatida qanday bajarilmoqda?**

Masalan, Bandixon tumanida keyingi yillardagi bunyodkorlik va obodlik nafaqat hudud qiyofasini, balki odamlar tafakkurini ham o‘zgartirdi. Bugun aholi islohotlar, avvalo, xalq manfaati, inson qadri va farovon hayoti uchun ekanini chuqur anglab yetmoqda. Hududlardagi o‘zgarishlar qalblarga ham ko‘chib, odamlarda “shu mahalla, shu ko‘cha meniki, uning obodligiga men ham mas’ulman” degan daxldorlik tuyg‘usini kuchaytiryapti. Ana shu hamjihatlik va xalq bilan birga ishlash tamoyili asosida bugun Bandixon tumanida asfalt qilinmagan, infratuzilmasi yaxshilanmagan ko‘chalar deyarli qolmadi.

Eng muhimi, bu jarayonda aholining fikri, tashabbusi va takliflari ham inobatga olinyapti. “Tashabbusli budjet” loyihasi orqali fuqarolar o‘z hududidagi muammolarni o‘zi ko‘tarib chiqib, ularning yechimiga bevosita hissa qo‘shmoqda. Xususan, Bandixon tumanidagi Saroy mahallasi aholisi ham ushbu jarayonda faol ishtirok etib, tashabbuslarini amaliy natijaga aylantira oldi.

Joriy yilgi “Tashabbusli budjet” loyihasi birinchi mavsumida mahalla aholisi ilgari surgan taklif g‘olib deb topildi. Natijada hududdagi “Rabotak” ko‘chasining 3100 metr qismiga asfalt yotqizildi.

“Tashabbusli budjet” loyihasining joriy yilgi birinchi mavsumida Bandixon tumanidagi Limonzor, Bahoriston va Saroy mahallalarida ichki ko‘chalar infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan takliflar aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, yuqori ovoz bilan g‘olib bo‘ldi. Jumladan, umumiy uzunligi 8 kilometrgacha bo‘lgan ichki ko‘chalarni asfaltlash bo‘yicha takliflar 5000 dan ortiq ovoz to‘plab, bunyodkorlik ishlarini bajarish uchun tanlab olindi.

Bundan tashqari, Paxtakor mahallasining Ashurxon ko‘chasida elektr ta’minoti tizimini tubdan yaxshilashga qaratilgan loyiha doirasida 10 ming metrdan ortiq elektr tarmog‘i yangilanishi, 250 ta eski simyog‘och almashtirilishi hamda quvvati yuqori bo‘lgan 4 ta transformator o‘rnatilishi rejalashtirilgan. Bu orqali 220 dan ortiq xonadon va 70 ga yaqin xo‘jalikni barqaror elektr energiyasi bilan ta’minlash ko‘zda tutilmoqda. Mazkur loyihalar aholining o‘z hududi obodligi uchun faol ishtirok etayotgani hamda tashabbusli budjet tizimi orqali eng dolzarb masalalar bosqichma-bosqich hal etilayotganini yaqqol namoyon qilyapti.



Bugun Bandixon tumanida aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va yangi ish o‘rinlari ochish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada hududda qator istiqbolli loyihalar amalga oshirilib, tadbirkorlar uchun yanada qulay shart-sharoit yaratilyapti. Xususan, Bektepa mahallasi hududida tashkil etilgan kichik va yoshlar sanoat zonasida umumiy qiymati 1,3 milliard so‘mlik loyihalar amalga oshirilishi natijasida 37 ta tadbirkorlik subyekti faoliyat boshlashi va 120 dan ortiq yangi ish o‘rni ochilishi kutilmoqda.

Najmiddin Norov ham mazkur kichik va yoshlar sanoat zonasida o‘zining sevgan hunari — temirchilik asosida tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. U o‘zi bilan birga besh tengqurini ham doimiy ish bilan ta’minladi. Bugun ular tayyorlayotgan temir darvoza, panjara va o‘rindiq kabi buyumlarni tumandagi ko‘plab xonadonlar hamda markaziy ko‘chalar yoqasida uchratish mumkin. Sifat va mehnatga mas’uliyat esa ustaning ishiga ishonchini yanada oshirmoqda.

**Bandixon tumani 2020-yili qayta tashkil etilgan vaqtda hududda atigi 2 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti mavjud bo‘lgan hamda bog‘cha yoshidagi bolalar qamrovi esa bor-yo‘g‘i 4,9 foizni tashkil etgan. O‘tgan davrda 15 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda 2 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog‘cha qurilib, foydalanishga topshirildi.**

— Bektepa mahallasi hududida maydoni 9 gektar bo‘lgan kichik sanoat zonasi tashkil etilgan. Bu yerda infratuzilma ham bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda. Ayni kunlarda umumiy qiymati 950 million so‘mlik loyiha asosida 1 kilometr yo‘lga asfalt yotqizish ishlari muvaffaqiyatli bajarildi. Bu esa hududda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar uchun transport qatnovini yengillashtirib, ishlab chiqarish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hududda elektr energiyasi, suv ta’minoti va yo‘l infratuzilmasi yaxshilanmoqda, — deydi Bandixon tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi bosh mutaxassisi Rustam Qoraqulov.

Tumanda joriy yil boshidan buyon ijtimoiy soha infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash hamda ta’lim-tarbiya jarayoni uchun yanada qulay muhit yaratishga alohida e’tibor qaratilyapti. Shu bilan birga, mahalla fuqarolar yig‘inlari uchun yangi binolar barpo etish orqali aholi bilan ishlash tizimi yanada qulay va samarali shaklga keltirilmoqda.

Bandixon tumanidagi Qaldirg‘och mahallasida joylashgan 19-maktab o‘quvchilari hozirgacha ikki smenada ta’lim olib kelayotgan edi. Umumiy qiymati 2,7 milliard so‘mlik loyiha asosida 180 o‘rinli yangi, zamonaviy o‘quv binosi qurilayotgani o‘quvchilarni qamrab olish imkoniyatini kengaytirish barobarida o‘g‘il-qizlarning bilim olishi uchun yanada qulay, yorug‘ va zamonaviy muhit yaratadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Bandixon tumani 2020-yili qayta tashkil etilgan vaqtda hududda atigi 2 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti mavjud bo‘lgan hamda bog‘cha yoshidagi bolalar qamrovi esa bor-yo‘g‘i 4,9 foizni tashkil etgan. O‘tgan davrda 15 ta davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda 2 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog‘cha qurilib, foydalanishga topshirildi. Shuningdek, 78 ta oilaviy bog‘cha tashkil etilgan. Natijada qamrov 82,3 foizga yetkazilgan.

Ayni kunlarda tumandagi Chinor mahallasida umumiy qiymati 4,5 milliard so‘m bo‘lgan 120 o‘rinli yangi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti qurilib, foydalanishga topshirilish arafasida turibdi.

— Mahallamizda zamonaviy bog‘cha qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu ota-onalar uchun katta qulaylik yaratib, mahallamiz aholisiga mamnuniyat bag‘ishlamoqda. Ilgari mahallamizda davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti mavjud bo‘lmagan. Endi maktablarga tayyorlov asosida ta’lim-tarbiya olgan yosh avlod vakillari keladi, — deydi o‘qituvchi Eshbo‘ri Mustafoyev.



Bandixon tumanida 22 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud. Ularning 2 tasi tuman markazida joylashgan. Shu bilan birga, 3 ta mahalla qo‘shni tumanlar bilan chegaradosh hududda, ya’ni markazdan ancha olisda faoliyat yuritadi. Eng muhimi, barcha mahalla fuqarolar yig‘inlari alohida binosiga ega bo‘lib, bu holat aholi bilan tizimli va samarali ishlash imkoniyatini yanada kengaytirmoqda.

Bir vaqtlar asosan uzumchiligi bilan mashhur bo‘lgan Oltinsoy tumanida bugun yo‘lga qo‘yilayotgan yirik loyihalar nafaqat ichki bozorni ta’minlash, balki eksport hajmini oshirishga ham xizmat qilyapti. Eng muhimi, bu o‘zgarishlar oddiy insonlar hayotida ham yaqqol sezilmoqda. Alouddin Ro‘ziyev tadbirkorlik faoliyatini boshlagan kezlarda yangi sohaga qo‘l urish oson kechmagan edi. Chunki tadbirkorlik ishini boshlash, mablag‘ va bozor masalalari uni bir oz cho‘chitgan edi.

— Keyingi yillarda yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan keng imkoniyatlar, imtiyozli kredit va moliyaviy qo‘llab-quvvatlovlar ishonchimizni yanada oshirdi. Mehnatimiz va tadbirkorlikdagi yordam tufayli nafaqat oilamiz farovonligiga, balki hududimiz iqtisodiyoti va yangi ish o‘rinlari ochilishiga ham xizmat qilyapmiz, — deydi tadbirkor Alouddin Ro‘ziyev.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yilning birinchi choragida Oltinsoy tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 84,4 milliard, bozor xizmatlari hajmi 248,6 milliard, qurilish ishlari esa 8,2 milliard so‘mni tashkil etdi. Bu raqamlar o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6 foiz o‘sishga erishilganini ko‘rsatadi.

Oltinsoy hokimligi ma’lumotlariga ko‘ra, joriy yilda tumanda umumiy qiymati 46,3 million dollarlik 36 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Bu orqali yangi ishlab chiqarish quvvati va qo‘shimcha ish o‘rinlari ochiladi. Shuningdek, eksport salohiyatini oshirish maqsadida tashqi bozorlar bilan yangi kelishuvlar ustida ishlanmoqda. Bu esa valyuta tushumi va budjet daromadining o‘sishiga xizmat qiladi.

— Tumanimizda aholi bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari ochish, ishsiz aholini kasb-hunarga o‘qitish, tadbirkorlikka jalb etish borasida ham tizimli ishlar qilinmoqda. Joriy yilning o‘tgan davrida tumanda 6691 ta yangi ish o‘rni ochildi. Bunda asosiy e’tibor sanoat, xizmat ko‘rsatish, qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalarida kichik va o‘rta biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan, — deydi Oltinsoy tumani kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i Azamat Norboyev.

Bugun Surxon vohasining chekka tumanlari — Bandixon va Oltinsoyda kuzatilayotgan bunday o‘zgarishlar hududlarning barcha qishloq va mahallalari hayotida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Yangi ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma loyihalari, aholi bandligini ta’minlash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar odamlarning ertangi kunga ishonchini mustahkamlayapti. Eng muhimi, keng ko‘lamli islohotlar natijasida chekka hududlar ham iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning faol nuqtasiga aylanadi.

**Sarvar TO‘RAYEV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



Nomzodlar sun’iy intellekt yordamida saralanadi, “SudHR” platformasi ishlab chiqilib, kadrlar ma’murchiligi to‘liq raqamlashtiriladi.

yuz_official
yuz.uz_news
yuz.uz_news

**Sharh**

**Mamlakatimizda 2016-yildan boshlab amalga oshirilayotgan sudlov islohotlari doirasida qator muhim huquqiy va institutsional o‘zgarishlar ro‘y berdi. Sudyalar oliy kengashining tuzilishi, sud ishlarini elektron yuritish tizimining joriy etilishi va sud mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik o‘zgartirishlari shular jumlasidan. Biroq sud apparati xodimlariga nisbatan tizimli komplayens nazoratni yo‘lga qo‘yish masalasi shu paytgacha mustaqil normativ jihatdan tartibga solinmagan edi.**

# Sudlarda komplayens nazorat:
# QONUNIYLIK, AXLOQIYLIK VA SHAFFOFLIK ASOSI

Korrupsiya, ayniqsa, sud tizimida og‘ir oqibatlarga olib keladi: u nafaqat alohida shaxslar huquqi, balki jamiyatning huquqiy tartibga ishonchini so‘ndiradi. Jahon bankining “Boshqaruv ko‘rsatkichlari” ma’lumotlariga ko‘ra, sud tizimidagi korrupsiya mamlakatning investitsiya jozibadorligi va iqtisodiy rivojlanishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 8-iyundagi “Sudlarda komplayens nazorat tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan. Farmon sud tizimida korrupsiyaga qarshi preventiv mexanizmni, kadrlarni adolatli boshqarish tizimi va xodimlarning kasbiy mas’uliyatini institutsional jihatdan mustahkamlaydi.

Zero, korrupsiyaning oldini olish — korrupsiyani faqat jazolash emas, balki yuz bermasidan aniqlash va bartaraf etish asosida zamonaviy yondashuv, kadrlarni adolatli tanlash — sud apparatiga bilim va malakasi asosida ularning salohiyati, iqtidori, kasbiy sifatlarini inobatga olgan xolda odilona va haqqoniy baholash asosida ishga qabul qilish, sud tizimiga jamoatchilik ishonchini mustahkamlash, sudning nufuzi va obro‘sini yanada oshirish, sud organlarini davlat islohotlarining ko‘makchisiga aylantirish farmonning asosiy maqsadlari etib belgilandi.

“Komplayens” tushunchasi tashkilot faoliyatini qonun hujjatlari, ichki qoidalar, kasb etikasi standartlari va xalqaro me’yorlar talablariga muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini qamrab oladi.

Moliyaviy sektorda keng qo‘llanadigan komplayens tizimi davlat organlari, xususan, sud tizimiga nisbatan ham tobora keng tatbiq etilmoqda. Sud tizimida komplayens nazoratni sud organlari faoliyatida qonuniylik, axloqiylik va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiluvchi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va boshqarishga qaratilgan institutsional nazorat mexanizmi deb ta’riflash mumkin.

Farmonga ko‘ra, Oliy sud tarkibida komplayens nazorat xizmati tashkil etiladi. U to‘g‘ridan to‘g‘ri Oliy sud raisiga bo‘ysunadi, ya’ni hech kim unga ta’sir ko‘rsata olmaydi, mustaqil bo‘ladi. Bundan tashqari, har bir viloyat va Toshkent shahri sudida alohida “inspektor” lavozimi joriy etiladi — jami 15 nafar. Ular ham mahalliy rahbarga emas, faqat komplayens nazorat xizmatiga bo‘ysunadi.

Hujjatda nazorat subyektlari bo‘yicha vakolat chegarasi aniq belgilangan. Unga ko‘ra, sud tizimida korrupsiyaning oldini olish sudyalar korpusiga nisbatan Sudyalar oliy kengashining sudyalar daxlsizligini ta’minlash va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha sud inspeksiyasi, sud apparati, shuningdek, sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti xodimlariga nisbatan komplayens nazorat xizmati tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Komplayens nazorat xizmatining asosiy vazifalari mazmuniga ko‘ra sud apparati faoliyatida korrupsiya yuzaga chiqishiga shart-sharoit yaratuvchi omillarni oldindan aniqlaydi, ularni baholaydi va bartaraf etish choralarini ko‘radi. Monitoring va nazorat asosida xodimlarning kasb etikasi hamda qonunchilik talablariga rioya etishini doimiy kuzatib, ishga qabul jarayonida shaffoflikni ta’minlaydi. Har bir nomzodni korrupsiyaga qarshi tekshiruvdan o‘tkazadi. Xodimlar va oila a’zolari: turmush o‘rtog‘i, voyaga yetmagan farzandlarining daromadi va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimini yuritadi. Xodimlarda korrupsiyaga murosasiz munosabat shakllantirib, bu boradagi bilim va ko‘nikmalarini uzluksiz oshirib boradi. Xalqaro standartlar asosida korrupsiya faktlari bo‘yicha xabar bergan xodimlarni himoya qiladi va rag‘batlantiradi. Fuqarolar uchun xavfsiz murojaat kanallarini joriy etadi.

Farmonga muvofiq, Oliy sud tomonidan korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi va xavf-xatar darajasi yuqori lavozimlar ro‘yxati tasdiqlanadi. Ana shu xavfli vazifalar raqamlashtiriladi. Maqsad — inson omili, ya’ni subyektiv qaror qabul qilish va korrupsion manipulyatsiya uchun imkoniyatlarni kamaytirish.

Hujjat bilan xodimning shaxsiy manfaatlari xizmat xolisligiga ta’sir ko‘rsatmasligini institutsional jihatdan kafolatlash maqsadida xodimlarni ishga qabul va mehnat faoliyatiga oid cheklovlar nizomi tasdiqlandi. Unga ko‘ra, ilgari korrupsiya jinoyati uchun aybdor deb topilganlarni ishga olish taqiqlanadi. Nojo‘ya xatti-harakatlar uchun boshqa huquq organidan bo‘shatilganlarga uch yillik moratoriy qo‘yiladi. Ilm, ta’lim va ijoddan tashqari har qanday haq to‘lanadigan faoliyat, tadbirkorlik, xizmat vazifasini siyosiy maqsadlarga yo‘naltirish va chet elda mol-mulk yoki hisobvaraq ochish ham taqiqlanadi.

Bu borada kasbiy va axloqiy sifatlarni birgalikda baholovchi ochiq tanlov tizimi joriy etilib, “vacancy.sud.uz” portali orqali vakansiyalar e’lon qilinadi. Nomzodlar sun’iy intellekt yordamida saralanadi, “SudHR” platformasi ishlab chiqilib, kadrlar ma’murchiligi to‘liq raqamlashtiriladi. Xodimlarning stress bardoshliligi, jamoada ishlash va moslashuv ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Shuningdek, yuridik oliy ta’lim muassasalari va Boshqaruv samaradorligi agentligi bilan hamkorlik orqali ilmiy salohiyatli kadrlar jalb etilib, bilim va malaka asosida shakllantirilgan professional jamoa yaratiladi.

Sudyalar korpusida korrupsiyaga murosasizlikni shakllantirish maqsadida sud tizimida korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasi diagnostikadan o‘tkaziladi. Sudyalikka nomzodlar faqat bilim emas, balki shaxsiy-professional va axloqiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ham baholanadigan tizim joriy etiladi. Sud ishlarini taqsimlash dasturi takomillashtirilib, mezonlar aniq va to‘liq belgilanib, jarayon shaffof holga keltiriladi. Odil sudlov akademiyasida “real keyslar” hayotdan olingan vaziyatlar asosida o‘quv-amaliy modul joriy etiladi. Manfaatlar to‘qnashuvi va korrupsiyaning boshqa ko‘rinishlari tahlil etiladi. Barcha sudyalar va sud apparati xodimlari har uch yilda korrupsiyaga qarshi majburiy malaka oshirish kursidan o‘tadi.

Shuningdek, Odil sudlov akademiyasida ichki xavfsizlik nazorati xizmati tashkil etilib, ta’lim muassasasining o‘zida ham mustaqil nazorat mexanizmi yaratiladi hamda akademiya korrupsiyaga qarshi kurashish menejmentining xalqaro standarti bo‘yicha mustaqil auditdan o‘tkaziladi. Bu O‘zbekiston sud tizimini global komplayens standartlari bilan uyg‘unlashtirishning aniq belgisidir.

Mazkur farmon sud tizimi islohotlarida korrupsiyaga qarshi institutsional nazorat mexanizmini o‘rnatishda muhim qadamdir. Farmon normalarining to‘liq amalga oshirilishi sud organlariga jamoatchilik ishonchini yanada mustahkamlash va O‘zbekistonda huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi ustuvor maqsadlarga xizmat qiladi.



**Sherzod ABDUQODIROV,
Odil sudlov akademiyasi rektori,
yuridik fanlar doktori, dotsent**

> **Farmonga ko‘ra, Oliy sud tarkibida komplayens nazorat xizmati tashkil etiladi. U to‘g‘ridan to‘g‘ri Oliy sud raisiga bo‘ysunadi, ya’ni hech kim unga ta’sir ko‘rsata olmaydi, mustaqil bo‘ladi. Bundan tashqari, har bir viloyat va Toshkent shahri sudida alohida “inspektor” lavozimi joriy etiladi — jami 15 nafar.**




**Ta’lim odimlari**

# AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O‘QITISHDA O‘ZIGA XOS YONDASHUV

**Dunyo miqyosida e’lon qilinayotgan bo‘sh ish o‘rinlari tahlili axborot texnologiyalari sohasida eng yuqori baholanayotgan mutaxassislar dasturlashni puxta bilish bilan birga texnik bilimni global muloqot ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtira oladigan kadrlar ekanini ko‘rsatmoqda.**



**Ma’muraxon MUSAYEVA,
Renessans universiteti axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi**

Chunki bugungi dasturchi, masalan, Toshkentdagi auditoriyada tahsil olayotgan bo‘lsa-da, ertaga Singapurdagi buyurtmachi bilan loyiha muhokama qilishi, Yevropadagi hamkasblari bilan bir jamoada ishlashi yoki dunyoning istalgan nuqtasidagi ochiq manbali platformalarga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin. Raqamli makon geografik chegaralarni tan olmaydigan bir davrda esa axborot texnologiyalari sohasi uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash masalasi mamlakatning istiqboldagi taraqqiyotini belgilovchi strategik yo‘nalishdir.

Mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida raqamli infratuzilmani takomillashtirish, AT ekotizimni mustahkamlash, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalar qatoridan o‘rin olgani bejiz emas. Bu jarayon oliy ta’lim muassasalari oldiga ham mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Ya’ni bugungi talaba — ertangi mutaxassislar jahon axborot makonida mustaqil harakatlana oladigan, yetuk kadr bo‘lib yetishishi shart.

Shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida chet til, ayniqsa, ingliz tilining o‘rni alohida. Dasturlash tillariga oid qo‘llanmalar, texnik hujjatlar, xalqaro platformalar, ilmiy maqolalar, onlayn kurslar hamda eng so‘nggi innovatsion yechimlarning katta qismi aynan shu tilda taqdim etiladi. Bunday manbalar bilan bevosita ishlash esa talabaning bilim doirasini kengaytiradi, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda zamonaviy tendensiyalarni tezkor o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Bunday sharoitda fan va tilni uyg‘unlashtirgan CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi zamonaviy ta’limning dolzarb yechimlaridan biri sifatida e’tibor qozonmoqda. Mazkur yondashuv talabalarga bir vaqtning o‘zida kasbiy bilimlarni chuqur egallash, xorijiy tildagi sohaviy terminologiyani o‘zlashtirish hamda xalqaro kasbiy muhitga moslashish imkonini beradi. Aytaylik, bir necha yil avval dasturlashni o‘rganayotgan talaba uchun darslikdagi mavzularni puxta o‘zlashtirish muvaffaqiyat mezoni sanalardi. Hozir vaziyat mutlaqo boshqacha. Texnologik yangilanishlar shu qadar tezlashdiki, universitet auditoriyasida o‘rganilgan bilimlar mehnat faoliyati boshlanguniga qadar bir necha bor yangilanib ulguradi. Kecha talab yuqori bo‘lgan dasturiy vositalar o‘rnini boshqalari egallaydi, yangi platformalar paydo bo‘ladi, demak, ish faoliyati talablari ham qayta shakllanadi.




Axborot texnologiyalari sohasining o‘ziga xos jihati shunda. Mazkur yo‘nalishdagi yangiliklar ko‘pincha xalqaro hamjamiyatda muhokama qilinadi. Dasturchilar uchun mo‘ljallangan platformalar, texnik tavsiyalar, dasturiy mahsulotlar hujjatlari, yangi kutubxonalar va ishlab chiquvchilar hamjamiyati tavsiyalari dunyo bo‘ylab bir vaqtning o‘zida tarqaladi.

Demak, ayni o‘rinda til bilish kasbiy faoliyatning kundalik vositasiga aylanishi lozim. CLIL texnologiyasining o‘ziga xos jihatini aynan shu nuqtada yaqqol kuzatish mumkin. Ya’ni talaba dasturlash bo‘yicha texnik topshiriqni o‘qib, veb-texnologiyalar yuzasidan xorijiy manbalarni tahlil qilib, ma’lumotlar bazasiga oid tavsiflar bilan ishlar ekan, til ko‘nikmasi bilan kasbiy tayyorgarlik bir-birini to‘ldirib boradi.

Yana bir muhim jihat shundaki, bugungi yoshlar orasida yangi g‘oyalar muallifi sifatida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishni istaydiganlar talaygina. Shuningdek, startap tashabbuslari, innovatsion ishlanmalar va raqamli xizmatlar ko‘payib borayotgan davrda mahalliy loyihalarni jahon bozoriga olib chiqish masalasi dolzarb. Xalqaro investor bilan muloqot qilish, mahsulotni xorijiy auditoriyaga tanishtirish, hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish uchun esa global kasbiy makon tilini tushunish zarur. Shu jihatdan CLIL yoshlarning oldida yangi eshiklarni ochadigan, salohiyatini kengroq maydonlarda sinab ko‘rish imkonini beradigan yangicha yondashuvdir.

Mamlakatimizdan yetishib chiqayotgan AT mutaxassislarning xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari O‘zbekistonning intellektual salohiyati, yoshlar siyosati samaradorligi, milliy ta’lim tizimi raqobatbardoshligini ham namoyish etadi. Birgina muvaffaqiyatli loyiha ortida zamonaviy ta’lim, uzluksiz izlanish, dunyo bilan teng muloqot va bahsga kira olish imkoniyatlari turishini unutmaslik lozim.

Shunday ekan, raqamli iqtisodiyot tobora chuqur ildiz otayotgan bugungi sharoitda axborot texnologiyalari sohasi uchun tayyorlanayotgan mutaxassislardan yangilikka ochiqlik, uzluksiz o‘rganishga intilish, mustaqil fikrlash va global hamkorlik muhitida ishlash qobiliyati talab etilyapti. CLIL texnologiyasi ana shu jarayonga yangi mazmun olib kiradi. Shu ma’noda, axborot texnologiyalarini o‘qitishda mazkur yondashuvdan samarali foydalanish ta’lim tizimining ichki masalasi darajasidan ancha kengroq mazmun kasb etadi.

Bugun auditoriyada xorijiy manba bilan mustaqil ishlayotgan, texnik topshiriqlar mohiyatini anglayotgan, o‘z g‘oyasini ishonch bilan himoya qilayotgan talabalar ertaga yangi dasturiy mahsulot muallifi, muvaffaqiyatli tadbirkor, xalqaro loyiha ishtirokchisi yoki yuzlab tengdoshlariga yo‘l ko‘rsatuvchi mutaxassisga aylanishi mumkin. Dunyo bilan teng muloqot qila oladigan, bilimini muntazam boyitib boradigan, yangilik yaratishdan cho‘chimaydigan avlodni voyaga yetkazish esa bugunning eng muhim vazifalaridan biridir.

# TOP-300 OLIYGOHLARI
## yurtimiz iqtidorli yoshlarini qarshi olmoqda

**Ertamiz egalari**

**Bundan ikki oy avval Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tashkil etgan matbuot anjumanida biz, jurnalistlar mutasaddilarga agentlik tizimida tahsil olayotgan yoshlarning oliygohga kirish ko‘rsatkichlari, bandlik darajasi yuzasidan savollar bergandik. Mas’ullar esa natijalar harakatga yarasha bo‘layotgani, tizim o‘zini oqlayotgani xususida gapirgandi.**




USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Yaqinda Muhammad al-Xorazmiy maktabida bo‘lib o‘tgan bitiruvchilar sammitida savollarimizga ro‘yi rost, amaliy javob topgandek bo‘ldik. Quvonchdan ko‘zi yonib turgan o‘g‘il-qizlar — ulkan yutuqlar egalari bilan suhbatlashdik.

Yoshlar e’tirof etayotganidek, Prezident maktablari iqtidorli yoshlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochayotir. Bu maktablar bitiruvchilari nafaqat ta’lim, balki ilmiy izlanish, startap loyihalar va xalqaro miqyosdagi yutuqlari bilan mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shayotgani ham haqiqat. Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimi, ta’lim jarayonlariga xorijiy tajriba va xalqaro standartlar joriy etilganining samarasi o‘laroq, bilimdon yoshlarimiz dunyo ilm maydonlarida raqobatga kirishib, intellektual salohiyatimizni namoyon etyapti.

Shu o‘rinda aytish joizki, Prezident maktablari Cambridge, CIS, Cognia.Inc va Pearson-Edexsel kabi xalqaro ta’lim tashkilotlari akkreditatsiyasidan o‘tkazilib, xalqaro maktab maqomiga ega bo‘ldi. Shuningdek, bu maktablar IELTS, SAT, A-level hamda AS-level sertifikatlari uchun imtihonlar o‘tkaziladigan British Council, College Board, Cambridge va Pearson-Edexsel tashkilotlarining rasmiy markazlariga aylandi. Mirzo Ulug‘bek va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar, Al-Beruniy nomidagi xalqaro maktab-internat Xalqaro bakalavriat tashkiloti dasturlari bo‘yicha akkreditatsiyadan o‘tdi.

2025/2026-o‘quv yilida agentlik tizimidagi 228 ta maktabda 9 ming pedagog 75 ming o‘quvchiga ta’lim beradi. Prezident maktablarining 327 bitiruvchisidan 171 nafari xorijiy oliygohlarga grant asosida qabul qilingan bo‘lsa, ixtisoslashtirilgan maktablarning 8640 bitiruvchisidan 1564 nafari muddatidan oldin talaba bo‘ldi. 99 bitiruvchi 100 foiz grant (jami 12,5 million AQSH dollaridan ortiq) bilan talabalikka qabul qilinib, 89 nafari TOP-300 talikdagi universitetlarga yo‘l oldi.

Bu yilgi bitiruvchilar orasida ham tengdoshlarini ruhlantirgan, ota-onalarda havas uyg‘otgan yigit-qizlar talaygina. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy maktabi bitiruvchilari Elbek Zohidjonov va Asilbek Sunnatov Massachusets universitetiga qabul qilingan bo‘lsa, Farg‘ona Prezident maktabi o‘quvchisi Dilafro‘z Sobirova Garvard universiteti grantini yutdi, Nurafshon Prezident maktabi o‘quvchisi Muhsinjon Movutaliyev esa Gonkong universiteti talabasi bo‘ldi.

Sariosiyo tumani ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘quvchisi Jasurbek Karomatov AQSHning bir yo‘la 12 ta nufuzli universitetiga qabul qilindi. Uning nufuzli oliygohlardan olgan umumiy granti 667 ming dollardan ortiq.

Bu kabi yoshlar ro‘yxatini davom ettirish mumkin. Har bir ism ortida uyqusiz tunlar, o‘qilgan yuzlab kitoblar va eng muhimi, yorqin kelajakka cheksiz ishonch turibdi. Shuning uchun ota-onalar bugun farzandlarining mana shunday maktablarda o‘qishini istayapti. Ushbu maktablarga tayyorlovchi o‘quv kurslariga ehtiyoj keskin ortgan. 2023-2025-yillarda tizimdagi ta’lim muassasalari soni kengayishi natijasida 1600 dan ziyod ish va 12,5 mingdan ortiq o‘quvchi o‘rni yaratildi.

2023-2025-yillarda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘qish istagida bo‘lgan talabgorlar soni 222 ming 561 dan 255 ming 613 nafarga yetdi. Shulardan kelib chiqqan holda, bu yil tizimdagi ta’lim muassasalari soni yanada kengayadi. Qashqadaryo, Namangan va Navoiy viloyatlarida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab filiallari tashkil etilishi va 5-10-sinflarga o‘quvchilar qabul qilinishi ko‘plab talabgorlarni xursand qildi.

“Yangi O‘zbekiston” universiteti va Mirzo Ulug‘bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab tajribasi asosida tashkil etiladigan muhandislik maktablari ham ayni yo‘nalish qiziquvchilari uchun katta imkoniyat. Mazkur maktablarda o‘quv jarayoni STEM modeli asosida tashkil etiladi. Dastlabki 3 yilda fizika, matematika va xorijiy til, keyingi 2 yilda muhandislik fanlari bo‘yicha boshlang‘ich tayyorgarlikka e’tibor qaratiladi. Maktablarga hududlardagi muhandislar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari biriktiriladi. Integratsiyalashgan fanlar mazkur oliygohning professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘qitib boriladi. Muhandislik maktablarining yana bir jozibador tomoni shundaki, yetarli talablarni bajargan bitiruvchilarga muhandislik ta’lim dasturi bo‘yicha tegishli ta’lim yo‘nalishida bir yillik qo‘shimcha davlat granti asosida 2-kursdan test sinovlarisiz va qo‘shimcha imtihonlarsiz o‘qishni davom ettirish huquqi beriladi.

Bugun ilm-fanda o‘saman, eng baland cho‘qqilarni zabt etaman degan yoshlarga davlatning o‘zi, butun bir xalq xayrixoh. Chunonchi, mahallada bir yigit yoki qiz chet el oliygohiga grant asosida o‘qishga kiribdi desa, xuddi o‘z farzandi uchun quvongandek quvonyapti odamlar. Yaqinda Navoiy shahridagi Prezident maktabining 7 bitiruvchisi “El-yurt umidi” stipendiyasini qo‘lga kiritib, dunyoning nufuzli oliy ta’lim muassasalariga kirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Davlat aynan shu yo‘ldagi, maqsadi ezgu yoshlar safini kengaytirishdan manfaatdor. Zero, ular chindan ham taraqqiyotga hissa qo‘shuvchi, bunyodkor yoshlar sifatida qadrlanadi. Bu esa — eng to‘g‘ri yo‘l.

“Yangi zamon bitiruvchilari — yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” deb nomlangan bitiruvchilar sammitida chet ellik mehmonlar mamlakatimizda yoshlarning ilm olishiga berilayotgan alohida e’tiborni e’tirof etdi. Xususan, tadbir mehmonlari orasida Xitoyning Yinghua Academy ta’lim muassasasidan tashrif buyurgan 18 o‘quvchi va o‘qituvchidan iborat delegatsiya O‘zbekistonning ta’lim tizimi va yoshlari hayoti bilan yaqindan tanishdi. Samimiy va iliq fikrlar, yorqin taassurotlarga boy bo‘lgan bu tashrif ikki davlat o‘rtasida ta’lim sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Sammitda, shuningdek, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan investorlar taqdirlandi. Ularning bitiruvchilarimiz loyihalariga sarmoya kiritishga tayyor ekani yoshlarni yana yangi-yangi loyihalar, startaplar sari undaganiga shubha yo‘q. Shu ma’noda aytish mumkinki, bunday tadbirlar Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bitiruvchilari erishgan yutuqlarni e’tirof etish, ilmiy, innovatsion va startap loyihalarini keng jamoatchilikka tanishtirish, shuningdek, yoshlar va investorlar o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun muhim maydon vazifasini o‘taydi.

**Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

Yigitlarimiz kuchli xarakteri, jismoniy tayyorgarligi va irodasini yaqqol namoyon etdi. Biz uchun birinchi jahon chempionatida birinchi golimiz — bu ham g‘alaba.



# MUNDIALDAGI ILK QADAM: OLG‘A, O‘ZBEKISTON!




## Iftixor

**Kuni kecha bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston – Kolumbiya o‘yinidan ancha oldin boshlangan, uchrashuv payti va keyin hamon ko‘z oldimizda yuz berayotgan manzaralar har bir yurtdoshimiz ko‘ngliga o‘zgacha shukuh olib kirayotir. Markaziy Osiyo, MDH, qolaversa, turkiy dunyo xalqlari diqqat bilan kuzatayotgan o‘yin tevaragida nimalar yuz bermayapti, deysiz.**

O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zolari nomini tildan qo‘ymay takrorlayotgan va ularga taqlid qilayotgan turli davlatlardagi futbol ishqibozlari, bayrog‘imizni yelkasiga yopib, mundial o‘tayotgan shahar ko‘chalarida jamoamizni qo‘llab-quvvatlayotgan turli millat vakillari, o‘zbek sportchilariga atab qo‘shiq aytayotgan qardosh ozarbayjon, qozoq va turk san’atkorlari... Sanayversak, adog‘i ko‘rinmaydi.

Ha, O‘zbekiston milliy terma jamoasi futbol tarixida yangi sahifa ochdi. Jamoamiz JCH — 2026 dagi tarixiy debyut uchrashuvini o‘tkazdi. Meksika poytaxtidagi Kolumbiya muxlislari bilan to‘lib-toshgan, sariq rangga burkangan Asteka stadionida futbol bo‘yicha XXIII jahon chempionatining “K” guruhi birinchi tur uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Angliyalik taniqli hakam Entoni Teylor boshqargan bahs kolumbiyaliklar foydasiga 3:1 hisobida yakunlangan bo‘lsa-da, jamoamiz mundial tarixidagi ilk o‘yinida kuchli raqibga munosib qarshilik ko‘rsata oldi.

E’tiborli jihati, Abbosbek Fayzullayev kiritgan gol O‘zbekiston milliy terma jamoasining jahon chempionatidagi ilk goli sifatida tarix sahifalariga qayd etildi. Shu tariqa Abbosbek milliy futbolimiz solnomasiga o‘z nomini muhrlab qo‘ydi.

Mundiallar tarixida kutilmagan natijalar juda ko‘p uchraydi. Hatto amaldagi chempion sifatida maydonga tushgan jamoalar ham birinchi o‘yinda kutilmaganda mag‘lubiyat alamini totganiga misollar yetarli. Mutaxassislar ta’biri bilan aytganda, O‘zbekiston jahon chempionatida debyutant jamoa. Uning ilk raqibi — FIFA reytingida 16-o‘rinni egallab turgan Kolumbiya milliy termasi. Shunga qaramay, vatandoshlarimiz muxlislaru mutaxassislarda iliq taassurot qoldirdi. Har qanday raqibga qarshi turish, gol urish, u bilan tengma-teng to‘p surish mumkinligini, hatto yanada yaxshi natijaga erishish imkoni borligini namoyish qildi.

Ayniqsa, o‘yindan keyin davlatimiz rahbari bildirgan fikrlar oldinda bizni kutayotgan qizg‘in o‘yinlar arafasida sportchilarimiz uchun katta quvvatlov bo‘ldi. Prezidentimiz milliy terma jamoamizning ishtirokini yuqori baholadi.

— Bu O‘zbekiston uchun tarixiy kun. Murosasiz, juda qizg‘in kechgan o‘yinda futbolchilarimiz jahon mundialida birinchi marta juda katta tajribali jamoaga qarshi kuchli xarakterini ko‘rsatdi. Bu oson emas. Biz 34 yil kutgan voqea bo‘ldi. Yigitlarimiz kuchli xarakteri, jismoniy tayyorgarligi va irodasini yaqqol namoyon etdi. Biz uchun birinchi jahon chempionatida birinchi golimiz — bu ham g‘alaba.

Biz vatanparvar va fidoyi yoshlarimiz bilan g‘ururlanamiz. Ular yangi O‘zbekistonning haqiqiy qahramonlari. Hali oldimizda juda ko‘p imkoniyatlar bor. Farzandlarim, qahramonlarimiz ko‘p narsaga qodir ekanliklarini namoyish qila olishdi. Ularga omad yor bo‘lsin! Olg‘a, O‘zbekiston! — dedi davlatimiz rahbari.

Terma jamoamiz bosh murabbiyi Fabio Kannavaro o‘yindan so‘ng matbuot anjumanida bildirgan fikrlar ham diqqatga sazovor:

— Futbolchilarimdan g‘ururlanaman. Ular yaxshi o‘ynadi. Bugun qiyin bahs kechdi. Bunday stadionda, bunday muxlislar qarshisida o‘ynash oson emas. Lekin bu ko‘proq motivatsiya berishi ham mumkin. Uchrashuv qiziqarli o‘tdi. Ikkinchi bo‘limda biz o‘yinni o‘zgartirishga erishdik. Chap qanotdan imkoniyatlar yaratdik. Nazoratni o‘z qo‘limizga olishga harakat qildik, biroq gol o‘tkazib yubordik. Men doim jamoamga o‘yin davomida faol harakat qilish kerakligini aytib kelaman. Kolumbiya singari kuchli jamoalarga qarshi o‘ynash katta kuch va mahorat talab qiladi. Biz ushbu o‘yinni eslab qolamiz. Chunki bu tarixiy bellashuv. Biz jahon chempionatidamiz. Bugungi o‘yin biz uchun yaxshi bo‘ldi deb ayta olaman. Xatolar bor, ular ustida ishlaymiz.

Shu o‘rinda Kolumbiya terma jamoasi bosh murabbiyi Nestor Lorensoning O‘zbekistonga qarshi o‘yindan keyin aytgan so‘zlariga ham quloq tutsak: “Mundialda zaif jamoaning o‘zi yo‘q. Shu bois, har qanday raqibga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kerak. O‘zbekiston terma jamoasi so‘nggi yillarda juda yaxshi natijalarga erishgan. U juda yaxshi tashkil etilgan jamoa. Tarkibida mahoratli futbolchilar va kuchli murabbiy bor. O‘zbekiston terma jamoasi qay tarzda futbol o‘ynashni yaxshi biladi”.

Endi Fabio Kannavaro boshchiligidagi milliy terma jamoa ikkinchi tur doirasida Portugaliyaga qarshi maydonga tushadi.




> “ ABBOSBEK FAYZULLAYEV KIRITGAN GOL O‘ZBEKISTON MILLIY TERMA JAMOASINING JAHON CHEMPIONATIDAGI ILK GOLI SIFATIDA TARIX SAHIFALARIGA QAYD ETILDI. SHU TARIQA ABBOSBEK MILLIY FUTBOLIMIZ SOLNOMASIGA O‘Z NOMINI MUHRLAB QO‘YDI.

Uchrashuv 23-iyun kuni Toshkent vaqti bilan soat 22:00 ga belgilangan.

Darvoqe, Meksika ommaviy axborot vositalari kechagi o‘yindan keyin O‘zbekiston jamoasi a’zolari xarakteridagi qiziq jihatga e’tibor qaratdi. Gap shundaki, yigitlarimiz jahon chempionatidagi ilk uchrashuvga mezbonlik qilgan Meksika va afsonaviy Asteka stadioniga minnatdorlik so‘zlarini yozib qoldirdi. Jamoa kiyinish xonasidagi maxsus doskaga ispan tilida “Muchas gracias, México! Mucha suerte en el Mundial!” (Katta rahmat, Meksika! Jahon chempionatida omad tilaymiz!) degan so‘zlar yozilgan. Yozuv oxirida o‘zbekcha “Rahmat!” so‘zi ham qo‘shib qo‘yilgan.

Sizlarga ham rahmat, yigitlar! Guruh bahslarida omad yor bo‘lsin! Olg‘a, O‘zbekiston!

**Nodir MAHMUDOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

## Inson qadri uchun



# ORZULAR RO‘YOBI, QALBLAR SHUKRONASI

**Ba’zan bir ezgu xabar yillar davomida dil tubida asrab kelingan orzularni ro‘yobga chiqarib, ko‘ngilda beixtiyor shukrona uyg‘otadi, xotirjamlik va surur bag‘ishlaydi. Ayniqsa, muqaddas haj ziyorati uni butun umr kutib yashagan nuroniy otaxon va onaxonlarimiz uchun hayotning eng unutilmas, eng qutlug‘ va eng aziz damlariga aylanadi. Prezidentimizning yuksak e’tibori va shaxsiy tashabbusi bilan 100 nafar yurtdoshimizning “Prezident hojilari” degan sharafli maqomda muqaddas haj amallarini to‘liq va mukammal ado etib, Vatanimizga sog‘-salomat qaytib kelgani qalblarimizni cheksiz quvonch va faxrga to‘ldirdi.**

Qalblarga surur bag‘ishlagan bu saodatli ro‘yxatdan jizzaxlik 6 nuroniy ham o‘rin olgan edi. Xususan, Zafarobod tumanida istiqomat qiluvchi Abduhoshim ota O‘rozovning xonadonida bugun haqiqiy bayram shukuhi hukm surmoqda. Safar oldidan Jizzax viloyati hokimi U. Mustafoyev otaning xonadoniga kelib, davlatimiz rahbari nomidan haj safari uchun maxsus yo‘llanma hamda esdalik sovg‘alarni tantanali topshirgan edi. O‘shanda otaxon ko‘zida sevinch yoshi bilan muqaddas zaminda el-yurtimiz haqqiga duo qilishni ko‘ngliga tukkandi. Bugun Abduhoshim ota ana shu ulug‘ niyatiga yetib, muborak haj amallarini go‘zal tarzda ado etib keldi. Safar taassurotlari bilan o‘rtoqlasharkan, otaxonning chehrasidagi nurli tabassum va qalbidagi hayajon so‘zlarga ko‘chdi:

— Mana shunday saodatli kunlarga yetkazgan Yaratganga behisob shukrlar bo‘lsin. O‘sha yerda aziz xalqimiz va Vatanimiz haqqiga chin dildan duolar qildim, doim tinchlik va farovonlik bo‘lsin deb so‘radim. Bizdek oddiy odamlarni yo‘qlab, ulug‘ orzularimizni ro‘yobga chiqargan xalqparvar Prezidentimizga chin dildan rahmat aytamiz. Bu mehr va e’tiborni umrimiz oxirigacha unutmaymiz. Hozir ham o‘zimni eng saodatli inson deb his qilyapman. Muqaddas zaminda biz uchun yaratilgan oliy darajadagi sharoitlar, cheksiz ehtiromdan yurtimiz qudratini, davlatimizning yuksak insonparvarligini his etib turdik.

Abduhoshim ota qariyb qirq yil umrini maktabga, ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlagan, matematika fanidan o‘g‘il-qizlarga saboq bergan. Shu bois, u bugun yurtimizdagi ulug‘ o‘zgarishlarni, ayniqsa, ta’lim tizimidagi yuksalishlarni muqaddas zaminda ham faxr va shukronalik bilan ko‘ngildan o‘tkazganini yashirmadi.

Keksa o‘qituvchi o‘tmish va bugunni mushohada qilar ekan, bir paytlar maktab tizimidagi qiyinchiliklar, o‘quvchilarning oylab majburiy mehnatga jalb etilishi ortda qolganini katta quvonch bilan tilga oldi. Bugun maktablarda yaratilgan zamonaviy sharoitlar, ilmga yuksak e’tibor va eng asosiysi, o‘qituvchi nufuzining yangi bosqichga ko‘tarilgani u kabi ko‘plab faxriy pedagoglarning ko‘nglini tog‘dek yuksaltirmoqda.

Yosh o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlab, milliy va xalqaro sertifikatlar asosida yuqori maosh hamda munosib rag‘bat topayotgani Abduhoshim otani mana shu xayrli islohotlarning bardavomligini so‘rab duo qilishga undadi. Keksa ustozning e’tiroficha, ilm ahli aziz bo‘lgan yurtda hamisha rivojlanish, qut-baraka va farovonlik bo‘laveradi.

Muqaddas safarni go‘zal suratda ado etib, yorug‘ yuz bilan mahalladoshlari va farzandlari bag‘riga qaytgan ota endi bor tajribasi va hayotiy saboqlarini yoshlar tarbiyasiga bag‘ishlashni niyat qilgan. Zero, bugungi yoshlar yurtning ertangi egalaridir. Ularni Vatanni sevadigan, millat qadrini biladigan, ilmli, ma’rifatli va yuksak ma’naviyatli insonlar etib kamol toptirish, qalbiga vatanparvarlik, shukronalik va ezgulik tuyg‘ularini singdirish har bir nuroniy uchun ham farz, ham qarzdir.

**Farhod NE’MATOV,**
**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

# MEHR VA E’TIBORDAN KO‘NGILLAR YORISHDI

**Prezidentimizning qat’iy irodasi va tashabbusi bilan inson qadrini har jihatdan ulug‘lash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu ezgu amallar hayotimizning barcha jabhasida yaqqol bo‘y ko‘rsatmoqda. Birgina misol: har yili minglab yurtdoshlarimiz muborak haj amallarini emin-erkin ado etib kelayotgani qalblarga cheksiz quvonch olib kirmoqda.**

Jumladan, men ham muborak haj ziyoratiga borishni ko‘p yildan buyon orzu qilib yurardim. Lekin oila, ro‘zg‘ordan orttirib, zarur mablag‘ni jamg‘arish uchun imkon topa olmasdim. Bu yil davlatimiz rahbarining ko‘magi bilan bir guruh faol nuroniylar safida haj safarida bo‘lib qaytganim hayotimdagi eng baxtiyor damlardan biri bo‘ldi. Yo‘llanmadan tashqari, safar jihozlari va mablag‘ berildi. Qulay, zamonaviy samolyotlar uzog‘imizni yaqin, og‘irimizni yengil qildi. Bunaqasi ilgari bo‘lmagani ham rost.

Yuzidan nur yog‘ilib turgan, mamnun kayfiyatdagi hojilar davlatimiz rahbarining islohotlaridan mamnun. Bu yilgi haj mavsumi juda katta uyushqoqlik va ko‘tarinki kayfiyatda tashkil etilganiga bevosita guvoh bo‘ldik. Ayniqsa, Prezidentimizning muftiy, shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan telefon orqali suhbatlashib, barchamizni Qurbon hayiti bilan tabriklagani qalbimizni quvonch va faxrga to‘ldirdi. Saudiya Arabistonida o‘zbekistonlik hojilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, yuksak darajadagi qulayliklar uchun alohida minnatdorlik bildiramiz. Muzdalifa va Arafotda muftiy hazratlari boshchiligida barchamiz yurtimizda tinchlik va farovonlik barqaror bo‘lishini tilab duolar qildik.

Umr bo‘yi o‘qituvchilik qilib, nafaqaga chiqqanman. Bu yil 76 yoshga kirdim, lekin harakatdan to‘xtaganim yo‘q. Vaqt topib, farzand va nabiralarga bosh bo‘lib tomorqa yumushlariga qarashib turaman, bilmaganlarini o‘rgataman. Halol mehnat elda qadrlanishini uqtiraman, ularni to‘g‘rilikka, yurtga munosib farzand bo‘lib kamolga yetish uchun o‘qib-o‘rganish, izlanishga chorlayman.

Haj safarida bo‘lgan kunlarimizda Oltiariq tumani hokimligi sa’y-harakati bilan uy-joylarimiz ta’mirlab berilganini ko‘rib, inson qadri ulug‘langan mamlakatda yashash zavqini yana bir bor dildan his qildim. Ziyoratdan qaytganimizga bir necha kun bo‘ldi, yo‘qlab keluvchilarning esa qadami uzilgani yo‘q. Suhbatlarimiz mavzusi el-yurt ishiga kamarbasta Prezidentimizning Vatan uchun, millat uchun, muqaddas dinimiz uchun qilayotgan xayrli ishlari haqida bo‘lmoqda.

**Yunusali JUMAYEV**
**Oltiariq tumani**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-646.
30166 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05